

XALQ VA ARMIYA – BIR TAN-U BIR JON!

VATANPARVAR

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan

www.mv-vatanparvar.uz



2022-yil 25-mart, №12 (2971)

@vatanparvar-bt@umail.uz



“

Og'ir qurollangan otliq qo'shinlar yaqin masofada jang qilgan. Soxta chekinishdan samarali foydalangan otliqlar yaqin janglarda uzun nayzalarni mohirona ishlatgan.

5-sahifa

“

Ulug'bekning hech narsasi yashirilmagan. Uning xazinasi «Ajdaho g'ori»ga sig'mas edi. Bu g'or, bo'lsa ham Urgut, Kitob, Katta Langar tog'laridagi biror xilvat darada emas.

6-7-sahifalar



**MARD YIGIT VATANGA
TIZ CHO'KIB YASHAR**



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ НАВРЎЗ УМУМХАЛҚ БАЙРАМИГА БАҒИШЛАНГАН ТАНТАНАЛИ МАРОСИМДАГИ ТАБРИК НУТҚИ

Ассалому алайкум, қадрли ватандошлар!

Хурматли меҳмонлар!

Аввало, сиз, азизларни, кўпмиллатли бутун халқимизни шарқона янги йил – Наврўз байрами билан чин юракдан самимий табриклайман.

Барчангизга тинчлик-омонлик, сихат-саломатлик, бахту саодат ва улкан ютуқлар тилайман.

Бугунги файзли дамларда чет эллардаги ватандошларимизни ҳам Наврўз айёми билан қутлаб, уларга чуқур ҳурматим ва эзгу тилакларимни изҳор этаман.

Мухтарам дўстлар!

Биз баҳор, яшариш ва янги-ланиш фасли – Наврўзи оламни ҳамиша орзиқиб, интизорлик билан кутамиз.

Аммо бу галги соғинчимиз чексиз, десам, ўйлайманки, сизлар ҳам менинг фикримга қўшиласиз.

Чунки коронавирус пандемияси туфайли биз кейинги икки йилда ушбу ардоқли байрамни халқимиз кутганидек юксак даражада нишонлай олмадик.

Мана, ниҳоят, Наврўз байрамини яна кексаю ёш барчамиз биргаликда катта шоду хуррамлик билан қарши олмақдамиз.

Бугун Наврўз байрамини Сиз азизлар билан мана шу мухташам «Ҳумо» саройида ўтказаяпмиз.

Чунки барчангиз кўриб турибсиз – сўнгги ҳафтада юртимизда ҳаво совиб, ёғингарчилик юз бермоқда.

Аммо ҳаммамиз яхши тушунамизки, шу кунларда осмондан ёмғир эмас, оби раҳмат ёғмоқда, қут-барака билан ризқу рўз ёғмоқда. Бунинг учун Яратганга ҳар қанча шукроналар айтсак арзийди.

Буюк аллома Ҳаким Термизий бобомиз ўзининг «Наврўзнама» китобида **«Наврўзи олам душанба куни кирса, ёмғир, қор ёғади, деҳқончилик, ҳосил мўл бўлади – йил тўқчиликда ўтади»**, деб ёзганлар.

Бу фикрлар бугун – айна душанба куни Наврўзни кутиб олаётган эл-юртимизнинг эзгу орзу-ниятлари билан уйғун ва ҳамоҳанг десак, ҳар томонлама тўғри бўлади.

Хурматли байрам иштирокчилари!

Биз мамлакатимизда бошлаган улкан ислохотларимизни давом эттириш мақсадида Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси ҳамда «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили» дастурини қабул қилдик.

Меҳнаткаш ва олижаноб халқимиз миллий ривожланишининг янги даврига улуғвор мақсад ва амалий ишлар билан кириб бормоқда.

Бунинг тасдиғини биз бугун ҳар бир оила, ҳар бир маҳалла, қишлоқ ва овуллар, шаҳарлари-

миз мисолида яққол кўришимиз мумкин.

Юртимизда юзлаб замонавий корхоналар, йўл ва коммуникация тармоқлари, шинам тураржойлар, янги боғча ва мактаблар, олийгоҳлар ҳамда маданият масканлари, тиббиёт ва спорт иншоотлари барпо этилмоқда. Барча ҳудудларимизда «Янги Ўзбекистон» боғлари, «Янги Ўзбекистон» массивлари бунёд қилинмоқда.

«Обод маҳалла» ва «Обод қишлоқ» дастурлари қаторида бутун мамлакатимиз бўйлаб «Яшил макон» умуммиллий лойиҳаси амалга оширилмоқда.

Ушбу бетакрор айёмда Наврўзининг олижаноб қадриятларидан куч-қувват ва илҳом олган халқимиз маҳаллаларда ҳашарлар қилиб, кўчат ва гуллар экиб, янги-янги боғ-роғлар, сайилгоҳлар яратмоқда.

Айтиш мумкинки, айна пайтда бутун мамлакатимиз байрам кайфияти ва бунёдкорлик руҳи билан яшамоқда.

Қадрли дўстлар!

Маълумки, дунёда турли байрамлар, қутлуғ саналар кўп. Лекин инсон қадр ва шаънини улуғлашда Наврўз айёми алоҳида ўрин тутади, десак, айна ҳақиқатни айтган бўламиз.

Наврўзи олам бизни табиат фарзанди бўлиб, Ватан тупроғини, она заминдаги ҳар бир гиёҳни кўзимизга тўтиё қилиб яшашга ўргатади.

Наврўз ҳаммамизга инсонийлик, меҳр-оқибат ва бағрикенглик фанидан сабоқ беради.

Шу файзли лаҳзаларда барчамиз тинчлик ва осойишталик нақадар бебаҳо неъмат эканини, унинг қадр-қиммати ва аҳамиятини яхши англаймиз.

Бугунги мураккаб дунёда халқимиз ҳаётини, фарзандларимиз келажагини, мусаффо осмонимизни асраб-авайлаш учун ҳар биримиз масъул ва жавобгар эканимизни янада чуқурроқ ҳис этамиз.

Наврўз байрами мамлакатимизда яшаётган, миллати, тили ва динидан қатъи назар, барча ватандошларимиз учун умумхалқ байрамига, энг сеvimли ва ардоқли айёмга айлангани билан чексиз фахрланамиз.

Айна шу кунларда бағрикенг диёримизда миллатлараро дўстлик, ўзаро ҳурмат, саховат ва мурувват туйғулари яққол намоён бўлмоқда.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган эзгу ишларимиз доирасида кенг жамоатчилик уйма-уй юриб, беморлар, кекса ва ногиронларга, кўмакка муҳтож оилаларга меҳр-оқибат, амалий ёрдам кўрсатмоқда.

Биз, барча ҳавас қиладиган бундай боқий урф-одатларимизни кўз қорачиғидек асраб, азиз

фарзандларимизни мана шундай юксак одамийлик руҳида тарбиялашни давом эттиришимиз лозим.

Ушбу имкониятдан фойдаланиб, Халқаро Наврўз куни муносабати билан барча хорижий дўстларимиз ва ҳамкорларимизни, бугунги байрамимизда иштирок этаётган дипломатик корпус вакиллари улуғ айём билан табриклаб, уларнинг мамлакатлари ва халқларига тинчлик, фаровонлик ва равнақ тилаймиз.

Азиз юртдошлар!

Эртага юртимизда яна бир қутлуғ байрам – Маҳалла куни кенг нишонланади. Маҳалла биз учун Ватан ичра кичик ватандир.

Шу боис, биз инсон қадрини маҳалла билан уйғун ҳолда тасаввур этамиз. **Маҳалла тинч бўлса – бутун юртимиз тинч бўлади. Маҳалла обод бўлса, бутун мамлакатимиз фаровон бўлади.**

Айна шу сабабли, ҳаётимизда маҳалланинг ўрни ва нуфузини ошириш, унинг ваколат ва имкониятларини кенгайтиришга алоҳида аҳамият қаратмоқдамиз.

«Маҳаллабай» ишлаш асосида аҳолининг яшаш шароитларини, ҳаёт даражаси ва сифатини яхшилаш, одамларимизнинг соғлиғини асраш, ижтимоий муаммоларни ечиш, хотин-қизлар ва ёшларни замонавий касб-ҳунарларга ўқитиш, уларни иш ўринлари ва уй-жой билан таъминлаш, эҳтиёжманд оилаларни қўллаб-қувватлаш борасидаги ишларимиз янги босқичга чиқмоқда.

Доимо эл-юрт хизматида бўлиш, унинг ташвиш ва муаммолари билан яшаш, барча даражадаги раҳбар ва мутасаддилар учун фаолият мезонига айланмоқда.

Фурсатдан фойдаланиб, аҳолининг оғирини енгил, мушкулини осон қилиш мақсадида астойдил хизмат қилаётган барча-барча инсонлар – маҳалла раислари ва фаолларини, мухтарам нурунийлар ва халқ ноибларини, кайвони опа-сингилларимизни, ҳоким ёрдамчилари ва ёшлар етакчиларини самимий табриклаб, уларга янги зафарлар ва омадлар тилайман.

Азиз дўстлар!

Мана шу баракали кунларда ризқу насибамиз бунёдкори бўлган миришкор деҳқон ва фермерларимиз, соҳибкор боғбон ва чўпонларимиз яхши кайфият ва эзгу ниятлар билан қадрдон далалари ва боғлари, яшил яйловлари томон йўл олмақдалар.

Уларнинг барчасини чин дилдан қутлаб, янги мавсумда ишларига ривож ва омадлар тилаб, ҳосилимиз мўл, хирмонларимиз баланд бўлсин, деб пок ниятлар қиламиз.

Хурматли юртдошлар!

Наврўз ва ёшлик тушунчалари

бир-бирига бағоят яқин ва муштаракдир.

Бугун азму шижоатли миллионлаб фарзандларимизга ғурур билан қарар эканмиз, бу ҳақиқатга такроран ишонч ҳосил қиламиз.

Мана шу ҳаяжонли дақиқаларда, эзгу орзу-интилишлар билан ҳаётга кириб келаётган ёш авлодимизга – азиз болаларимизга мурожаат қилиб айтмоқчиман:

Қадрли ўғил-қизларим, сизлар мустақил, эркин ва обод Ватан бағрида вояга етмоқдасиз. Бу, ҳеч шубҳасиз, бебаҳо бойлик ва катта бахт, айна вақтда чексиз масъулиятдир.

Нега деганда, ота-оналар, устозларингиз бошлаган улкан ишларни эртага айнан сизлар давом эттирасиз.

Бу улуғ вазифага ҳозирдан тайёр бўлишингиз, замонавий билим ва касб-ҳунарларни пухта эгаллашингиз, муқаддас Ватанимизни кўз қорачиғидек асрашингиз, унга ҳамиша содиқ бўлиб яшашингиз зарур.

Доимо ёдингизда бўлсин – биз интилаётган юксак марраларга, ҳеч қачон ўз-ўзидан, осонлик билан эришиб бўлмайди.

Янги Ўзбекистонни, Учинчи Ренессансни халқимизнинг буюк қудратидан куч олиб, бугунги ва эртанги авлодимиз бунёд этади.

Сизлар бўлғуси Хоразмий ва Фарғонийлар, Беруний ва Ибн Синолар, Улуғбек ва Навоийлар, Бобурлар сифатида Ватанимиз шону шўхратини бутун дунёга, албатта, тараннум этасизлар.

Илм ва ҳунар ўрганишдан, камолот сари парвоздан асло тўхтаманг. Доимо олдинга, юксак чўққиларга интилинг, азиз фарзандларим!

Мухтарам юртдошларим, қадрдонларим!

Мана шу қутлуғ айёмда сиз, азизларни, бутун халқимизни Наврўз байрами билан, яна бир бор, чин қалбимдан муборакбод этаман.

Наврўзи олам ҳар бир инсон, ҳар бир оилага тинчлик-хотиржамлик, яхшилик ва файзу барака олиб келсин!

Мухтарам отахон ва мўътабар онахонларимизнинг умрлари зиёда бўлсин!

Меҳрибон опа-сингилларимизнинг эзгу тилаклари рўёбга чиқсин!

Азиз фарзандларимизнинг бахту иқболини берсин!

Жонажон Ватанимиз янада гўзал ва обод бўлсин!

Юртимиз тинч ва осойишта, халқимиз доимо соғ-омон бўлсин!

Наврўз байрамингиз муборак бўлсин!

ИЛК ОФИЦЕРЛИК УНВОНИ МУБОРАК!

Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юртининг Офицерлар тайёрлаш курси навбатдаги битирувчиларни қўшинлар сафига йўллади.



Мудофаа ва Фавқулодда вазиятлар вазирликларининг сержантлар таркибида контракт бўйича хизмат қилаётган олий маълумотли ҳарбий хизматчиларининг битируви ва уларга илк офицерлик унвони топширилишига бағишланган тантанали маросим пойтахтимиздаги «Ғалаба боғи» ёдгорлик мажмуасида бўлиб ўтди. Унда Мудофаа вазирлиги масъуллари, давлат ва жамоат ташкилотлари вакиллари, битирувчиларнинг ота-оналари, яқинлари иштирок этди.

Мудофаа вазирининг тарбиявий ва мафкуравий ишлар бўйича ўринбосари полковник Ҳамдам Қаршиев битирувчиларни қутлар экан, Ватанимизнинг ҳудудий яхлитлиги, халқимизнинг тинч-осойишта ҳаётини ҳимоя қилишда уларга букилмас ирода, муваффақият тилади. Миллий армиямизнинг жанговар тайёргарлик даражаси, мамлакатимиз хавфсизлигига раҳна соладиган ҳар қандай таҳдидларга қарши тура олиш қудрати унинг замонавий қурол-аслаҳа

ва ҳарбий техника билан қанчалик таъминланганидан ташқари бевосита унинг таркибида хизмат қилаётган ҳарбий хизматчиларнинг юқори билим ва тажрибасига ҳам боғлиқлигини алоҳида таъкидлади.

Шундан сўнг мудофаа вазири ва фавқулодда вазиятлар вазирининг тегишли буйруқлари ўқиб эшиттирилди, битирувчиларга бирма-бир, қарсақлар остида сертификат ва «лейтенант» ҳарбий унвони топширилди.

Битирувчилар бир ярим ой давомида замон талаблари ва стандартлари асосида ишлаб чиқилган ўқув дастури бўйича энг илғор педагогик, ахборот-коммуникация технологияларидан, моделлаштириш ва симуляция воситаларидан фойдаланган ҳолда қўшинларни бошқариш, мураккаб қурол-аслаҳа ва ҳарбий техникани қўллаш каби бир неча йўналишда сабоқ олдилар.

И. НУРАЛИЕВ

#Islahotlar samarasi

ЯНГИ ХОНАДОНЛАР КАЛИТИ ТОПШИРИЛДИ

Давлатимиз томонидан ҳарбий хизматчиларнинг турмуш шароитларини янада яхшилаш, уларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш борасида улкан ишлар амалга оширилмоқда. Айём шукуҳи кезиб юрган айни кунларда Жануби-ғарбий махсус ҳарбий округ тасарруфидаги Пачкамар қўрғонида жойлашган ҳарбий қисмда 96 та хонадонни ўз ичига олган икки қаватли 4 та хизмат уйи ҳарбий хизматчилар ихтиёрига топширилди.



Фаровон турмуш учун ҳар қандай қулайликларга эга 2 ва 3 хонали хонадонларда барча шарт-шароитлар муҳайё. Иссиқ, совуқ сув, газ ва электр таъминоти ҳеч бир шаҳар имкониятларидан кам эмас.

Хизмат уйлари эгаларига тантанали топшириш маросимида Жа-

нуби-ғарбий махсус ҳарбий округ қўшинлари қўмондони генерал-майор Зайнобиддин Иминов, вилоят ҳокимлиги, нуронийлар, ёшлар ва кенг жамоатчилик вакиллари иштирок этди. Сўз олганлар барчани байрам билан табриклаб, янги уй соҳибу соҳибаларига фаровон ҳаёт тиладилар.

Болалар майдончалари, дам олиш масканлари, савдо дўкони, замонавий болалар боғчасини ўз ичига олган маскан мўъжаз шаҳарчани ёдга солади. Тадбир жараёнлари Наврўз сайлига уланиб кетди. Ош мусобақаси, сумалак сайли, миллий таомлар кўргазмаси каби қалбга баҳорий

илиқлик олиб кिरувчи тантаналарда маҳалла аҳли, отахону онахонлар, болажонлар ҳақиқий байрам завқини туйдилар.

Жануби-ғарбий махсус ҳарбий округ матбуот хизмати



Бу йилги Наврўз қизириқликлар учун ҳар доимгидан тароватли ва файзли келди. Гап шундаки, «Ватанпарвар» ташкилоти Қизириқ тумани ўқув спорт-техника клубининг янги замонавий биноси фойдаланишга топширилди.

ҚИЗИРИҚЛИКЛАР УЧУН ҚЎШАЛОҚ БАЙРАМ

Бинонинг очилиш маросимида Ўзбекистон Республикаси мудофаасига кўмаклашувчи «Ватанпарвар» ташкилоти марказий кенгаши раиси Хусан Ботиров ва раис ўринбосарлари, ташкилот ҳудудий кенгашларининг раислари, туман ҳокимлиги, ҳамкор ташкилотлар вакиллари, ҳарбий хизматчилар, маҳалла фаоллари ва ёшлар иштирок этдилар.

Давлат мадҳияси янграганидан сўнг Хусан Ботиров сўзга чиқиб, тадбир иштирокчилари ва ташкилот ходимларини Наврўз айёми билан муборакбод этар экан, ушбу инновацион технологиялар билан жиҳозланган янги бино Қизириқ тумани аҳолиси учун «Ватанпарвар» ташкилотининг

совғаси эканлигини билдирди. У ташкилот янги биносининг ишга туширилиши туман аҳолиси, айниқса, ёшлар оммавий техник касбларни эгаллашлари ҳамда спортнинг техник ва амалий турлари билан шуғулланиб, муваффақият қозонишлари учун айна муддао эканлигини таъкидлади.

Шунингдек, Қизириқ тумани ўқув спорт-техника клубига «Gentra» русумли янги автомобиль фойдаланиш учун топширилди. «Ватанпарвар» ташкилоти раҳбари томонидан туман маҳаллаларида истиқомат қилаётган «Темир дафтар», «Аёллар дафтари» ва «Ёшлар дафтари»да рўйхатда турувчи эҳтиёжманд оилаларнинг фарзандларига ҳайдовчилик курсла-

рида бепул ўқиш ҳуқуқини берувчи сертификат топширилиши тадбир иштирокчиларининг олқишларига сазовор бўлди.

Фойдаланишга топширилган бино бир қават ва ертўладан иборат бўлиб, унинг ертўла қисмида бир вақтнинг ўзида 50 нафар спортчи шуғулланиш имкониятига эга бўлган спорт секциялари жойлашган. Бинонинг асосий қисмида эса ҳайдовчилик касбини ўрганишга мўлжалланган, инновацион технологиялар билан жиҳозланган замонавий синфхоналар мавжуд.

Яратилган шарт-шароитлар барча ташриф буюрувчилар, айниқса, ёшларда катта таассурот қолдирди.

Нуроний отахонлар ушбу бионинг барпо этилиши ташаббускори бўлган «Ватанпарвар» ташкилоти раҳбарияти ва унинг қурилишида бош-қош бўлган инсонларнинг ҳаққига дуо қилди.

Яқунда Ҳ. Ботиров томонидан ташкилотнинг Тошкент, Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари кенгашлари раисларига «Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларига 30 йил» эсдалик нишони тантанали равишда топширилди.

Лазиз БҶРОНОВ,
Ўзбекистон Республикаси мудофаасига кўмаклашувчи «Ватанпарвар» ташкилоти матбуот хизмати раҳбари

#Bunyodkorlik



САМАРҚАНДА ЯНГИ ЙИРИК МАЖМУА



Бугунги кунда мамлакатимизда туризм соҳасини янада ривожлантиришга қаратилаётган эътибор, очиқ, прагматик ва фаол ташқи сиёсат, давлат чегараси орқали ўтишда фуқароларга яратилаётган шарт-шароит ва қулайликлар ҳамда ўтказиш пунктлари инфратузилмасининг йилдан-йилга такомиллашиб бораётгани юртимизга кириб келаётган йўловчилар оқимининг тобора ортишига хизмат қиляпти. Сўнгги йилларда давлат чегарасини кесиб ўтган шахслар сонининг 22 миллиондан 40 миллионгача ортгани фикримиз исботидир.

Мазкур йўналишда амалга оширилган ислохотлар самараси ўларок, барпо этилган йирик мажмуа – Самарқанд халқаро аэропорти янги терминали ҳам эндиликда юртимизга ҳаво кемалари орқали ташриф буюрувчи сайёҳлар ва ватандошларимизга жаҳон талаблари асосида хизмат кўрсатиш қобилиятига эга бўлди.

Янги терминалнинг халқаро учиб кетиш ва учиб келиш залларида

йўловчилар ҳамда Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинлари ўтказиш пункти ходимларининг самарали фаолиятини ташкил этиш учун қатор қулайликлар яратилган бўлиб, 10 та паспорт назорати кабинаси, учиб кетаётган йўловчилар учун электрон дарвозалар, шунингдек, учиб келган йўловчилар учун 15 та паспорт назорати кабиналари мавжуд.

– Аввалги терминалдаги аэропорт билан солиштирадиган бўлсак, у соатига 200 нафар йўловчига хизмат кўрсата оларди, ҳозирги кунга келиб бу кўрсаткич 4 баробарга ошган, яъни соатига 800 нафарга яқин йўловчига хизмат кўрсата олади, – дейди капитан Сардор Маҳкамов. – 6 та электрон дарвоза қўйилган. Халқаро стандартларга мос бу электрон дарвозалар бизда ҳам босқичма-босқич жорий этиляпти. Янги терминалда бир қанча хорижий мамлакатларга ҳам тўғридан-тўғри халқаро парвозларни амалга ошириш режалаштирилган.

Албатта, мамлакатимизга ташриф буюраётган шахсларни биринчилардан бўлиб кутиб олувчилар ўтказиш пунктларида фаолият олиб бораётган Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинларининг чегара назорати бўлинмалари ходимлари саналади.

Шу асосда, Самарқанд халқаро аэропортининг янги терминалида нафақат йўловчилар, балки уларга хизмат кўрсатаётган чегара назорати ходимлари учун ҳам қатор хизмат ва ўқув машғулотлари хоналарининг барпо этилиши, шахсий таркибининг малака ва кўникмаларини мунтазам

равишда юксалтириб бориш орқали юртдошларимиз ҳамда республика- миз меҳмонларига хизмат кўрсатиш сифатини янада ошириш имконини беради.

Ҳам ташқи ҳам ички қиёфаси тамомила янги, ўзига хос архитектуравий ечим асосида қурилган ушбу масканда доимий рейслар сонини ҳафта-сига 40 тадан 120 тагача ошириш имкони яратилиб, перроннинг модернизация қилиниши натижасида авиатураргоҳ 24 тагача ҳаво кемасини сиғдира олиш даражасигача кенгайди. Аэропортнинг йўналиш тармоғини кенгайтириш режаси 2030 йилга бориб, йўналишлар сонини 30 тага етказишга қаратилган.

Халқаро ташкилотлар томонидан ўтказилган мустақил таҳлиллар ушбу аэропорт орқали йўловчилар оқимининг йилига 480 000 кишидан 2 миллион кишига ортишини кўрсатмоқда. Бу эса, ўз навбатида, давлатлараро яқин қўшничилик алоқалари ва дўстона муносабатларнинг янада мустаҳкамланишига замин яратади.

Майор Фариди БОБОЖОНОВА
ДХХ Чегара қўшинлари



ЎЗБЕКИСТОН ХУДУДИДА МИЛОДДАН АВВАЛГИ IV-I МИНГ ЙИЛЛАРДА ҲАРБИЙ ИШЛАР



Қадимшунос олимларнинг изланишлари, археологик қазилмалар жараёнида топилган ашёлар ва шу асосда олиб борилган илмий тадқиқотлар Марказий Осиё ҳудудида милоддан аввалги биринчи минг йилликда ҳарб ишлари, хусусан, қурол-яроғ ва ҳарбий аслаҳалар ишлаб чиқариш, қўшинларни бошқариш ва жанг тактикасида илғор тажрибалар тўпланганлиги ҳақида хабар беради. Юнон тарихчилари ва бошқа олимлар учта илк давлат тузилмалари, яъни Хоразм, Бақтрия ва Сўғдиёна (Сўғд) тўғрисида қимматли маълумотларни эълон қилишган.

Бу давр ҳарбий ишларининг сезиларли даражада ривожланиши, ҳар хил қуроллар ва истеҳкомларнинг мавжудлиги – отишма галереялари, миноралар, кенг ва чуқур ариқлар, стандарт истеҳкомлар билан ҳимояланган мудофаа деворлари билан тавсифланади.

Сакларнинг мудофаа қуроллари қалқон, чиғаноқли қобиқ ва дубулғадан иборат бўлган. Дубулға катта, металлдан, қозон шаклида, ён деворлари бироз сиқилган бўлиб, скиф-сак бош кийими – қалпоқчани эслатади. Қалқон ҳажм жиҳатидан кичик бўлиб теридан ясалган. Қобиқ мисдан, кейинроқ темир парчаларидан ишланиб, терига тикилган. Бир қатор темир парчалари иккинчи қатор пластинкасини ярмигача қоплаган. Бундай қобиқ танага жуда мос тушиб, жангчининг ҳаракатини чекламаган.

Камон мураккаб, скиф типиди бўлиб, узоқ масофадаги нишонни бехато уришга ўнғай бўлган. У ой шаклидаги икки ярим қисмдан, кўпинча суяклардан ёки иккита шохдан иборат бўлиб, тўғри камон билан боғланган. Скифлар камон ипини кўкрагига эмас, елкасига тортиб, ўнгдан ҳам, чап елкадан ҳам мохирона ўқ узганлар. Ўқ пайконлари темир, кўпинча бронзадан ясалган. Ўқларни ишлаб чиқаришда қамишдан ҳам фойдаланилган. Душман жангчиларини бир ўқ билан ҳалок қилиш учун ўқ пайконига заҳар сингдирилган. Яқин жангларда ханжар ва қиличлардан кенг фойдаланилган. Катта қиличларнинг узунлиги 1,2 метрга етган. Қисқа қиличлар – «акинаки» ўнг томонга тақилган.

Сакларнинг тактикаси «лава» деб номланган. Бу усулдаги жанговар ҳаракатда отлик қўшин катта тезликда

душманни ўраб олиб, ўқ ва найзалар ёғдирган. Биринчи бўлинма қурол-яроғ олиш учун қайтганда унинг ўрнига иккинчи бўлинма жангга кирган ва бу усул душман жанговар кучини йўқотгунча давом эттирилган. Шундан сўнг қўл жанги бошланган.

Лашкар алоҳида қўшинлар хизмати ва бўлинмаларга бўлинган. Отлик ва пиёдалар қўшма ҳужумининг махсус усулида бир отга икки жангчи ўтириб жангга кирган. Душманга яқинлашган-



да уларнинг бири отда қолиб, иккинчиси сакраб тушиб пиёда жанг қилган. Улар кучлар мувозанатини ўз фойдасига ўзгартириш учун стратегик чекинишдан самарали фойдаланганлар. Айниқса, пистирма ўрнатиш, душманни ўзига жалб қилиб, тўсатдан ҳужум уюштириш ва тезда кўздан ғойиб бўлиш усули кенг қўлланган. Бундай усулларни қадимги юнон ва рим муаллифлари «кичик уруш» деб атаган.

Милоддан аввалги VI аср ўрталарида Марказий Осиёнинг кўп қисми форс шоҳи Кир II томонидан босиб олиниб, Аҳамонийлар давлати таркибига кирди. Аҳамонийлар ҳукмронлиги икки асрга яқин давом этди.

Бақтрияликлар Аҳамонийлар қўшинида алоҳида таркибга эга бўлиб, камон ва калта найзалар билан қуролланганди. Бақтрия қўшинлари отлик ва пиёда аскарлардан иборат бўлган. Бақтрия отликларининг қуролланиши пиёда аскарлариники билан бир хил эди.

Марказий Осиё халқларининг Аҳамонийларга қарши тинимсиз кураши IV асрнинг иккинчи ярмида мустақил Хоразм подшогининг ташкил топишига олиб келди. Шу даврда саклар ҳам ўзларини форс давлатининг тобелари деб ҳисоблашни тўхтатган. Аҳамонийларнинг Марказий Осиё халқлари устидан ҳукмронлигига

барҳам бериш милоддан аввалги 331 йилдаги Гаугамела жанги билан якунланган, ўшанда охириги Аҳамоний Доро III Искандар Мақдунлига мағлуб бўлган.

Милоддан аввалги II асрда Бақтриядан шимолроқда жойлашган кенг ерларда Сўғд, Чоч, Сирдарёнинг ўрта ва қуйи оқими вилоятлари ва шимолий Хоразмни қамраб олган «Кангюй» давлат бирлашмаси тузилган. Манбаларга кўра, Кангюй қўшини 120 минг аскардан иборат бўлиб, асосан оғир ва енгил отликлардан ташкил топган. Улар яхши отлар билан таъминланиб, пиёдалар камон, қилич, қобиқ, мис болта билан қуролланган. Жангда олтин камар ва олтин тасма тақиб юришган. Уларнинг танаси зирҳ билан ҳимояланган. Бу зирҳ чармдан тайёрланган, унинг устидан катта металл пластинка кийилган. Тўпикгача тушадиган бу зирҳли кийим отни ҳам ҳимоя қилган. Дубулғалари юмалоқ ёки конуссимон, тепаси баланд устунли бўлган. Бўйни баланд зирҳли ёқа билан ҳимояланган.

Оғир қуролланган отлик қўшинлар яқин масофада жанг қилган. Сохта чекинишдан самарали фойдаланган отликлар яқин жангларда узун найзаларни мохирона ишлатган. Душман руҳий тушкунликка тушиб, қуршаб олингандан сўнг Кангюй қўшинлари энг шиддатли жангга кириб, душманни қилич билан яқсон қилган.

Милоддан аввалги I асрда Кушонлар империяси ташкил

топган.

Кушонлар давлати 150–200 минг пиёда ва отлик аскарлардан иборат яхши қуролланган қўшинга эга бўлган.

Отликлар иккига бўлинган. Оғир қуролланган отликлар енгил қуролланган бўлинмалар билан яқин ҳамкорликда ҳаракат қилган. Жанг тактикаси қуйидагича эди: камончилар душманга ўқ булутини ёғдирганлар, сўнг оғир отлик қўшинлар ҳимоясида орқага чекиниб, садоқларини тўлдирган. Жангда узунлиги 85 дан 120 сантиметргача бўлган, икки қиррали темир қиличлар, кесмасиз, узун тутқичли, калта ханжарлар, одам бўйига тенг ва ундан узун найзалар, болталар, ҳар хил калтаклар қўлланилган.

Қалқонлар бир неча хил, яъни кичик, елкадан сонгача тушадиган, юмалоқ шаклда, ташки томондан конуссимон бўртиқчали бўлган. Шунингдек, отлар алоҳида зирҳ никоқлари билан ҳимояланган.

Кушон империясининг қудратли истеҳком тизими шимолдан келаётган кўчманчи босқинларидан ҳимоя қилиб, Сўғдиёнадан Бақтрияга олиб борувчи тоғлардаги барча доvon ва ўтиш жойларини беркитган.

Рафаэль АХМАДУЛЛИН,
Ўзбекистон Республикаси
Қуролли Кучлари давлат
музейи етакчи илмий ходими



ПОДШОҲ ВА МАЙМУН

У қахратон қиш кунлари уйда сандал атрофида кичик гурунларда гоҳ-гоҳида сўзланадиган ҳикоя эди. Қадимда бир подшоҳ бўлган экан. Унинг суюкли маймуни бор экан. Кўпинча уни: «Одамдан... вазирларимдан ҳам ақллироқ», дея мақтаркан. У ҳатто, подшоҳ душманлари билан жанг қилганда эгарнинг орқасида ўтириб, соҳибига ёрдам қилар экан. Жанг майдонида дубулға кийган бир маймун ҳам жанг қилаётганини эшитиб, душман аскарлари ҳайратланар, подшоҳ кўшини кайфияти кўтарилиб, ундан руҳланиб кетар экан. Урушда танаффус бўлган пайтлари икки тараф ҳам подшоҳ ва унинг ёнида туриб жанг қилаётган маймун ҳақида ҳар хил воқеаларни ҳикоя қилишар экан. У сарой мажлисида вазирлардан юқорида, тахтга яқин махсус ясалган курсида ўтириб, машваратда иштирок этаркан...

Бир куни подшоҳ аъёнлари билан овга чиқибди. Жайрон учраб, изидан қувиб, овдошларидан узоқлаб кетибди. Тўсатдан жайрон кўздан ғойиб бўлиб қолибди. Подшоҳ қараса, атрофда бирор қора кўринмайдиган саҳронинг ўртасига бориб қолганмиш. Юрибди, юрибди ва қаттиқ чанқабди. Узоқда ёлғиз дарахт кўринибди. Борса, олдида булоқ оқиб турганмиш. Ундан қониб сув ичибди, чарчаганидан дарахт соясида ухлаб қолибди. Маймун ҳам ёнида экан. Атрофга аланглаб: «Хожам ухлади, уни кўриқлашим керак», деб ўйлабди ва подшоҳнинг қиличини қинидан суғуриб, соқчилик қила бошлабди. Бу иш ўзига ҳам роса ёқиб қолибди. Қилични тутиб, гердаиб у ёқдан-бу ёққа юраверибди. Ногоҳ, бир чивин подшоҳ бошига келиб қўнибди. Маймун уни ҳайдабди. У хиралик қилиб, яна кўнаверибди. Ахийри, маймуннинг жаҳли чиқиб, ўткир қилични тутган ҳолда уни пойлаб турибди. Чивин подшоҳнинг манглайига қўнибди. Шунини кутиб турган маймун яшин тезлигида унга қилич урибди. Чивин яна учиб кетибди. Аммо подшоҳнинг боши қоқ иккига бўлинибди.

Бу ҳикояни тинглаб, манзарани тасаввур қилардик...

ҲАҚИҚАТ
АЛОМАТЛАРИ

Йилбоши кириб келди. Ҳар тарафда кўклам нафаси уфурмоқда. Яна ҳикоялар мавсуми бошланди. Бу гал бошқа подшоҳ ҳақида ҳикоя қидиряпман. Барибир сўрашади. Қарасам, 1394 йили айнан Наврўз куни, ҳикоялар бир-бирига уланиб кетадиган мавсумнинг энг қизғин палласи – 22 мартда темурий султон Мирзо Улуғбек дунёга келган экан. Ҳазрат Навоий бу саодатли ҳукмдорни:

«Темурхон наслидан
Мирзо Улуғбек,
Ки олам кўрмади султон
анингдак», дея улуғлаган.

Ўтган йили Самарқанд таълим тизими ва мадрасалари тарихини ўрганаётиб, ҳар қадамда Мирзо Улуғбекка дуч келавердим. У умрини

Самарқандга сайқал беришга бағишлаган, Туроннинг қадимий кентига маърифатнинг қиёссиз ва тенгсиз бўстони яратган экан.

Мирзо Улуғбек ҳақида китоблар ва мақолалар жуда кўп. Ҳаммаси муносабатга чорлайверади. Айниқса, унинг йўқолган кутубхона хазинаси бугунгача гурунларни қиздириб юборади. Ҳозир улар домига тортиб кетмасидан, бор эътиборимни бирдан ўша машҳур кутубхонага қаратишга уринаман. Қарийб барча уни йўқолган, ғорга яшириб қўйилган, деб турган бир пайтда айнан шу кутубхонага тегишли бирор китоб ё нарса кўриш, унга қўл теккизишнинг иложи борми?

Шундай имконият топилди. Гапни узун қилмаймиш. Бу иш Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлғина хазинасида сақланаётган қадимги китобларни тафтиш қилишдан бошланди. Унда «Шу китоб Мирзо Улуғбек кутубхонасига тегишли» деган сатрга ўхшаш бирор матн чиқиб қолишидан умидвор эдик. Умид ўзини оқлади.

Ўзбек халқининг фахри Мирзо Улуғбекнинг энг катта кутубхонаси Регистондаги машҳур мадрасада эди.



ХАЗИНАСИ

Қўлғина хазинасида ушбу олий ўқув юртида кўчирилган, ўқитилган учта китоб аниқланди.

1. Аҳмад ибн Яҳё ибн Муҳаммад ибн Саъд ат-Тафтазонийнинг мерос масаласига оид «Шарҳ фароиз ус-Сижавандий» асари. ЎзР ФА ШИ, №8875/3, араб тилида, 67 varaқ (1496-216а).

2. Аҳмад ибн Яҳё ибн Муҳаммад ибн Саъд ат-Тафтазоний, «Шарҳ ақоид ан-Насафий», калом илмига оид асар, ҳижрий 768 йили (1367) ёзилган. ЎзР ФА ШИ, №9022/1, араб тилида, 71 varaқ (16-716а).

3. Шарифжон маҳдум Садри Зиёнинг тарихга оид «Тарихи осори атиқа ва биноҳои қадима Бухорои шариф» асари. ЎзР ФА ШИ, №2193/24, 4 varaқ (243а-246а).

Қўлғина хазинасида мазкур рақамда сақланаётган жилдда Садри Зиёнинг яна бир қанча асарлари тўп-ланган. Ушбу асар, эҳтимол, Мирзо Улуғбекнинг Самарқанддаги мадрасасида ёзилган сўнги асардир.

Ҳатто, шу пайтларда ҳам Мирзо Улуғбек кутубхонаси камбағаллашиб қолганига қарамай, фаолият юритиб турганди. Рус маъмурулари ва кейинчалик шўролар Мирзо Улуғбекнинг йўқолган кутубхонаси ҳақида турли миш-мишлар тарқатиб, ёлғон ахборотни кўпиртирмай, ҳамманинг эътиборини ҳақиқатдан шамғалат қилмай, уни сақлаб қолганда эди... Мирзо Улуғбек асос солган 600 йиллик ўша машҳур кутубхонадан бугун ҳам шу юрт ва дунё илм аҳли фойдаланаётган бўларди.

ҚАДИМГИЛАР ВА ХАЗИНА

Кейинги пайтларда тадқиқотлар ва китобларда учрамаган баъзи маълумотлар бисотимда йиғилиб қолди. Бу соҳада фикрларим чала эканини худди шулар кўрсатдимикан, деб ўйлагандим. Йўқ, ундай эмас экан. Орадан кўп йиллар ўтиб, яқинда таниқли адиб Одил Ёқубовнинг «Улуғбек хазинаси» китобини яна варақладим. Ундан Мирзо Улуғбек ҳақидаги фикрларим тўлиб қолмади, тасаввурим бутланмади. Бу ерда муаллиф ҳам, китоб ҳам айбли эмас. Ушбу асарни ажойиб, деб ҳам бўлмайди. У 1980 йили учинчи марта 75 минг нусхада

чоп этилган. Билмадим, бу асар ёзилишига қадар Улуғбекнинг «йўқолган китоблар хазинаси» тўғрисида яна кимдир ёзганмикан? Халқ орасида шундай гап-сўзлар бўлганми?

Ўша пайтлар «Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайин» (Абдураззоқ Самарқандий), «Равзут ус-сафо» (Мирхонд), «Ҳабиб ас-сияр» (Хондамир) каби асарлар тўлиқ таржима қилиниб нашр этилганда, муаммо осонроқ ҳал бўларди. Мирзо Улуғбек тўғрисида батафсил ахборот берган Абдураззоқ Самарқандий «яширилган китоблар»дан бирор ўринда сўз очмайди. Султон Улуғбекнинг «куфр» китоблари ҳақида ҳам гапирмайди. Бошқа муаррихларда ҳам шундай. Хожа Аҳрор Вали ҳаёти ва асҳоблари тарихига бағишланган Фахриддин Али Сафийнинг «Рашахоту айн ал-ҳаёт» асарида замон султонининг «куфр» ишлари ва асарларига бирор ишора йўқ. Ҳолбуки, «Улуғбек хазинаси» асарига кўра, Хожа Аҳрор ва Низомиддин Хомуш иккови султоннинг ашаддий душмани бўлган. Улар ўртасидаги келишмовчилик Алишер Навоий асарларида ҳам кўринмайди. Бобур Мирзо битикларида машҳур қариндошини: «Темурбекнинг ва Улуғбек мирзонинг иморати ва боғати Самарқанд маҳаллотиде кўптур», дея яхши гаплар билан эслайди. Сирли воқеаларга жуда қизиққан, ўткир синчи Бобур яширилган китоблар хазинаси ҳақида ҳеч нарса демайди.

БИР ЯРИМ АСРЛИК
ИЛДИЗЛИ ЎТРИК

Кўпчиликни ҳозиргача ҳаяжонга солиб турадиган бу ўтрикни ким ўстирган? У қандай пайдо бўлиб қолган?

Бу воқеа ҳам келиб-келиб, яна ўша Самарқанд тарихига оид кўплаб ҳужжатларни ўмарган, аҳолидан товланмачилик ва кўрқитиш йўли билан қимматбаҳо қўлғина китобларни олиб кетган рус салтанати маъмури Александр Кунга бориб тақалди.

ХАЗИНА ТАЛВАСАСИ

Яқинда Интернетда «Йўқолган хазина ёки Мирзо Улуғбек кутубхонаси ҳақида биласизми?» сарлавҳали мақола ўқиб қолдим. ►►



УЛУҒБЕК

ҚАЁРДА?

У Амир Темура ва Мирзо Улуғбек кутубхонасига бағишланган эди. Ундан қуйидаги парчани келтирамиз: «Мирзо Улуғбек кутубхонасини излаш ишлари Самарқанд Россия империяси томонидан босиб олингандан сўнг бошланган. 1869 йилда Туркистон генерал-губернатори томонидан шарқшунос Александр Кунга Мирзо Улуғбек кутубхонасини топиш бўйича махсус топшириқ берилган.

Санкт-Петербург университети-нинг Шарқшунослик факультетини битирган бу олим араб, форс ва турк тилларини мукаммал билган. Бундан ташқари, Александр Куннинг онаси армани бўлгани учун у арман тарихчиларининг манбаларига таянган. Чунки арман тарихчиларининг маълумот беришларича, «Амир Темура ўз вақтида Арманистондан арман ва форс тилидаги китобларни йиғиб, ўз пойтахти Самарқандга жўнатган ва бу китоблар Самарқанднинг қайсидир бир минорали биносига сақланмоқда». Шунинг учун Александр Кун имкони борича Самарқанддаги барча мадраса, масжид ва бошқа иншоотларни текшириб чиқишга муваффақ бўлди. Лекин унинг бу ҳаракатлари натижа бермади.

Тарихдаги ҳар бир маълумотни ҳақ гап, деб қабул қилувчи ҳеч қачон ҳақиқатни топа олмайди. Арман тарихчилари ёзганларининг ҳам ҳаммаси рост эмас. Александр Кун шарқшуносликда ўқигандир, бир неча тилни яхши билар, яхши тадқиқотчидир. Лекин унинг Самарқандда қилган бузуқчиликларидан сафдоши В.Л. Вяткин қанчалар норози бўлиб ёзганини расмий ҳисоботлардан ўқигандим. У Самарқанддаги барча масжид, мадраса ва хонақоҳларни илмий ўрганиш учунмас – улардаги қадимий манбалар, ҳужжатлар ва мулкларини тортиб олиш йўллари-ни топиш, бу ишни муваффақиятли амалга ошириш вазифаси билан юборилган эди.

ЁЛҒОННИНГ ИНИ

Шу ишлар орасида у Мирзо Улуғбек кутубхонасини ўша даврларда «мусулмонлар йўқ қилишларининг олдини олиш» учун қаерларгадир яширилгани ҳақида бўлмағур саф-

саталарни ўйлаб топади. Самарқанд кутубхоналари тарихини ўрганмоқчи бўлган тадқиқотчини бирор манзилга элтмайдиган, сарсон-саргардонликка олиб кетадиган йўл Александр Куннинг варақларидан бошланган экан. Ҳаммани бир ярим асрдан бери чалғитиб келаётган ёлғоннинг ини шу жойдан чикди.

РЕГИСТОНДАН БОШЛАНГАН ЙЎЛ

1960-йилларда Улуғбекнинг йўқолган хазинаси фавқуллода яна машҳур бўлиб кетади. Ҳозир ҳам Самарқанд, Қашқадарё томонларда бу хазинанинг қаерга яширилгани тўғрисида қизгин суҳбатлар, баҳс-мунозаралар бўлиб туради. Туялар карвони «Аждаҳо ғори»га сандиқ тўла китобларни ташлаб қайтиши воқеаси гурунларнинг энг қизиғи ва сирлисидир. Суҳбат марказида кўпинча Ургут, Пастдарғом, Китоб, Шаҳрисабз, Катта Лангар тоғлари туради. Бундай суҳбат ёшлиқда бизнинг давраларда ҳам бўлган. Ўқитувчилар гоҳида Улуғбекнинг йўқолган китоблар хазинаси тўғрисида куйиб-пишиб, берилиб гапиришар, унинг топилишидан умидвор бўлиб қандайдир мавҳум бир илинж билан бош қотиришарди. Ўзаро келиша олмай, боши ғавғолардан чиқмаган қадимги боболаримиздан қаттиқ хафа бўлардик... Ўртада яна тортишувлар бошланиб кетарди.

Бу каби мулоҳазалар илк бор Бухоро таълим тизими (мадрасалар) тарихи тадқиқига киришганимда пайдо бўлганди. Самарқанд мадрасалари ва кутубхоналари воқеалари уларни яна кўзгади. Мирзо Улуғбек ҳақиқатан ҳам келгуси авлодга китоблар хазинасини қолдирган. Аммо уни топиш учун қайси йўлдан юриш керак?

«Аждаҳо ғори» сари беҳуда йўл қидираётган минглаб изловчиларга эргашмаймиз. Мирзо Улуғбек қадрдонлари ҳузурига элтадиган йўлни танлаймиз. Бу йўл Самарқанд Регистонидан бошланади.

ҒОР...

Россия салтанати босқини ва ҳатто, шўролар давлат тўнтарувига қадар Мирзо Улуғбекнинг Самарқанд, Бу-



хородаги мадрасалари ва кутубхоналаридан бирор бойлик ё китоблар сирли равишда ғойиб бўлмаган. Мамлакатимизда 1200 йилдан ошиқроқ вақт кутубхоначилик аниқ қонун-қоидалар асосида бошқариб келинган. Ҳар қандай ўқувчи уларга қатъий риоиз қилиши шартлиги ҳужжатнинг аниқ бандларида кўрсатиларди.

Турон маърифий ҳаётида барча жараён табиий тарзда кечган. Илмий баҳс-мунозаралар давом этаверган. Талабалар илм ўрганган, улар учун китоблар харид қилинган, кўчиртирилган. Китоблар эскираверган, ўрнига янгилари сотиб олинаверган. Йўқолган ё йиртилганлари ҳам худди барча замонлардаги каби бирор нўноқ ўқувчининг лоқайдлиги, эътиборсизлиги туфайли содир бўлган.

Аштархонли Абул Файзхон даврида расман бошланиб, узоқ давом этган бузуқчилик замонида (1710–1780) Самарқанддаги барча мадрасалар, кутубхоналар ва албатта, Улуғбек кутубхонаси ҳам жамият таназзулининг қурбонига айланади. Ўлкада Русия ҳукмронлиги ўрнатилгач, кутубхона аҳволи яна оғирлашади. Ундаги кўпгина китоблар рус маъмурлари томонидан талон-торож қилинади, айрим қўлэмалар Фон Кауфман Тошкентда ташкил этган кутубхона ва Санкт-Петербургга ташиб кетилади.

Шўролар замонида уларнинг ҳаммаси тўхтади... Хазина – Улуғбек кутубхонаси ҳақиқий маънода бутунлай йўқотилади. Мирзо Улуғбек университети (мадраса) ва кутубхона фаолиятига узил-кесил чек қўйилди. Турон тарихида унинг ўрнида энди фақат китоблар беркитилган «аждаҳо ғори»га ўхшаш олди-қочди ривоятлар қолади.

Улуғбекнинг ҳеч нарсаси яширилмаган. Унинг хазинаси «Аждаҳо

ғори»га сифмас эди. Бу ғор, бўлса ҳам Ургут, Китоб, Катта Лангар тоғларидаги бирор хилват дарада эмас. «Аждаҳо ғори»... бизнинг бошимизда асрлар барпо қилган қоронғи бўшлиқдир. Ҳарчанд уринмайлик, ундан бирор китобни топиб бўлмайди.


ЙЎҚОЛГАН ХАЗИНА

Аслида у йўқолмаган. У китоблар Абу Райҳон Беруний номидаги қўлэмалар институти, Самарқандда тўпланган қўлэмалар жамғармаси, Санкт-Петербург ва бир қанча хорижий кутубхоналар, турли асровхоналарга (архив) тарқалиб кетган. Мирзо Улуғбек мадрасаси институт ё университет мақомида ва ундаги кутубхона тикланса, йўқолган, деб ҳисобланаётган хазина ўз ўрнига қайтади. Бугун жамият фавқуллода янги юксалиш сари йўл ахтармоқда. Бу жараёнда Мирзо Улуғбек мадрасаси, расадхонаси ва кутубхонаси иштирок этиши бугунги авлоднинг кўзлаётган мақсадига тезроқ етиши ва қутулган муваффақиятларга эришишига амалий хизмат қилади.

* * *

Мирзо Улуғбек хазинасини тоғу тошлардаги ғорлардан қидиришда ҳеч қандай маъно йўқ. Бу йўналишдаги барча ҳаракатлар бугуннинг саҳнасида яна барибир Подшоҳ маймуни ҳикоясини олиб чиқмоқда...

**Абдусаттор ЖУМАНАЗАР,
Абу Райҳон Беруний номидаги
Шарқшунослик институти
катта илмий ходими**



Finlandiya nega baxtli davlat?

Baxt so'zining ma'nosi hamma uchun turli tushunchalarda aks etadi. Buni esa so'rovnoma orqali bilib olish mumkin. Dunyoda ham mamlakatlarning baxtlik koeffitsiyentini aniqlovchi bir qancha so'rovnoma e'lon qilinadi. Ulardan biri Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi "United Nations World Happiness Report" hisobotidir. Ushbu tadqiqotlarga ko'ra, Finlandiya davlati uch yil ketma-ket, ya'ni 2018–2020-yillar oralig'ida eng baxtli mamlakat deb e'lon qilingan. Buning sababi nima? Keling, bu savolga tadqiqotlarga tayanib javob topishga harakat qilamiz. Eng asosiy sabablardan biri finlarning juda ko'p kitob o'qish odati ekan. Bizning "Chorsu" bozorimiz qanchalik gavjum bo'lsa, finlarning kutubxonalarini ham shunday gavjum bo'lar ekan. Bu ma'lumotlarni raqamlar orqali isbotlashimiz ham mumkin. Masalan, 5,5 million aholisi bo'lgan Finlandiyada yiliga kutubxonalaridan 68 millionga yaqin kitob o'qish uchun olinar ekan. Dunyodagi eng yaxshi jamoat kutubxonalarini ham aynan Finlandiya davlatida joylashgan. O'z hayotiga kitob orqali mazmun olib kirayotgan xalqda "baxt" tushunchasini kitobdan ayro tasavvur qilish mumkin emas.

O'qiydiz: "Skandinaviya mamlakatlarida yashovchilar mamnun bo'lishlarining yana bir sababi shundaki, ularning "baxt" haqidagi tushunchasi bizdan juda farq qiladi. Bu borada kitob yozgan tadqiqotchi Maykl Butning so'zlariga ko'ra: "Ish lavozimi ko'tarilishi yoki soyabonli kokteyllar ichishni baxt hisoblamaydilar. Ular uchun kichik baxtlar muhimroq. Boshqacha qilib aytganda, ular biz kabi "baxt"ning orqasidan quvishmaydi, o'zlarining mavjudliklaridan baxtlilar".

O'quvchilarga uy vazifasi berilmaydigan davlat

Finlandiya davlati dastlab Shvetsiya qo'lida bo'lgan bo'lsa, keyinchalik Rossiya qo'l ostiga o'tadi. E'tibor bersak, bir qancha davlatlar qo'lida mustamlaka bo'lgan bu mamlakat hozirgi kunda yashash uchun qulaylik darajasi eng yuqori bo'lgan davlatdir. Mamlakat qanday qilib tez rivojlana oldi? Finlar bunga eng yaxshi ta'lim tizimi va milliy ruhni tarbiyalash orqali erishdilar. Finlandiyaning bugungi kundagi ta'lim tizimi haqidagi ma'lumotlar biz uchun "susambil"dek eshitiladi.

O'qiydiz: "Milliy nazorat tizimi, ya'ni imtihonlar umuman yo'q";

Bir millatning uyg'onishi

"O'quvchilar o'zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga muvofiq ravishda shakllantirish huquqiga ega. O'qituvchilar ham shunday";

"Finlandiyalik o'quvchilarga ta'limning dastlabki olti yilida hech qanday baho qo'yilmaydi. Ular 16 yoshga to'lganda bir marta butun mamlakat bo'ylab imtihon topshiriladi";

"Barcha o'qituvchilar kamida magistr darajasiga ega va universitetdagi yutuqlari bo'yicha eng yaxshi 10 foizlik orasidan tanlanadi. O'qituvchilik – jamiyatdagi eng yuqori mavqega ega bo'lgan kasblardan biri";

"O'quvchilarga uy vazifasi berilmaydi, chunki o'qish joyi faqat maktab deb hisoblanadi";

"Raqobat, biri boshqasidan ustun kelishi fin madaniyatida qadrlanadigan narsa emas";

"Finlandiyaning byudjetdan ta'limga ko'proq pul ajratishi sinf muhitida aks etadi. Chunki o'qituvchilar ham, direktorlar ham bir xil maosh olishadi";

"O'qituvchilikka o'qitadigan fakultetga ko'plab bosqichlarni bosib o'tgandan so'ng qabul qilinadi, ular orasida yaxshi munosabatlar o'rnatish, kelishuvchanlik, bolalar darajasiga tusha olish va intiluvchanlik kabi xislatlarga ega bo'lish ahamiyatga olinadi";

"Finlandiyada maktab arxitekturasiga alohida e'tibor beriladi. Ko'p qavatli binolar o'rniga katta bog'larda bir qavatli binolar quriladi";

"Fin maktabi oshxonalarida suv, sut va mevalardan boshqa narsa yo'q".

"Kazarmadagi har bir erkak tirik olmosdir"

Fin xalqi Shvetsiyadan keyin Rossiya tasarrufiga o'tgach, eng birinchi navbatda boshlang'ich, o'rta maktab va litseylarda shved o'qituvchilarining o'rniga fin o'qituvchilarini qo'ydilar. O'sha vaqtda fin o'qituvchilarining zimmasida yosh avlodda milliy g'ururni shakllantirishdek murakkab, shu bilan birga mas'uliyatli vazifa yuklatilgan

edi. Xo'sh, keyingi bosqich qanday bo'ldi deb o'ylaysiz? Ular ikkinchi bosqichda o'z e'tiborlarini armiyadagi mavjud muhitni yaxshilashga qaratdilar. Sababi, ayni paytda ularga milliylik armiya zarur edi. Shuning uchun kazarmalardagi juda yomon sharoitni tubdan isloh qilishni boshlashdi. Natijada onalar o'z farzandlariga "Armiyaga borib, kelib ayniding", deb emas, balki tarbiyasiz bolalarga "Seni armiya odam qiladi, tarbiyalaydi", deyishlariga erishdilar. Kitobning aynan shu bo'limi harbiylar nafaqat jangovar shay bo'lishlari zarurligi, balki ma'naviyat va ilm salohiyati yuqori bo'lishi zarurligi haqida ta'kidlaydi.

O'qiydiz: "Armiya o'z Vatanini himoya qilish uchun ko'ksini qalqon qiladigan qahramonlar devoriga o'xshaydi. Bu devor tufayli fuqarolar o'zlarini qulay va xavfsiz his qilib, hayotlarini davom ettiradilar";

"Kazarmadagi har bir erkak tirik olmosdir. Har yili minglab qimmatli odamlarimiz kazarmalarda yig'ilishadi. Bu qimmatbaho olmoslarimiz umrlarining bir qismini shu yerda o'tkazadilar. Kazarmadan qaytayotgan olmoslarimizning bir yeri tinalgan va hatto singan bo'lsa, bu mamlakatimiz uchun katta yo'qotish bo'ladi";

"Biz nafaqat urush davrida, balki tinchlik davrida ham o'z mamlakatimizga foydali bo'lishimiz zarur";

"Kazarma bizning uyimiz. U yer bizning ibodatxonamiz. Ruhoniylar uchun cherkov, o'qituvchi uchun maktab qanday bo'lsa, biz uchun kazarma shunday. Biz shuning uchun ham o'zimizni tarbiyalay va xushmuomala tutishimiz kerak";


"Harbiy tayyorgarlik qanchalik ko'p bo'lmasin, ular har kuni askarlarni o'qitishga bir necha soat vaqt topishar edi";

"Kazarma go'yo madaniy va mustahkam yangi hayotni boshlash fabrikasiga aylandi";

"Shunday qilib, kazarmada mentalitet va ma'naviyat yoyildi. Yaxshi xamirturush xamirni qanday yaxshi qilsa, kazarmalar ham xalqning ko'tarilib rivojlanishini tezlashtirdi".

Sizlarga asardagi eng qiziqarli nuqtalarini ochib berishga harakat qildim. Ammo bu daryodan bir tomchi xolos. Sababi, asar bir vaqtlar bejiz Turkiya davlatida darslik sifatida o'qitilmagan. Yana bir ogohlantirish ham borki, g'oyat qimmatli bu asar tarjimon tomonidan yaxshi tarjima qilinmagan. Shunday bo'lsa ham bu asar mohiyatiga ta'sir ko'rsatmagan. Ishonamanki, "Oq nilufarlar yurtida" eng yaxshi kitoblaringiz qatoridan joy oladi.

Muattar MELIYEVA,
«Vatanparvar»



Nazarimda, yildan yilga kitobxonlar soni kamayib, saviya ham pasayayotgandek go'yo. E'tibor bergan bo'lsangiz, bugungi kun yoshlari badiiy qimmatini yuqori bo'lgan kitoblarga nisbatan psixologik yoki ko'proq pul topishni o'rgatadigan asarlarga mukkasidan ketishyapti. Shuning uchun ham bunday mavzudagi kitoblar jadal tarzda o'zbek tiliga tarjima qilinayapti. To'g'ri, keyingi yillarda xorij adabiyotiga qiziquvchilar ham ko'paygandek, lekin aksariyat hollarda chet el adabiyotlari sifatsiz tarjima qilinayotgandir. Ammo ularning ichida quyoshdek nur taratib turuvchi kitoblar ham uchrab turadi. Ulardan biri Grigoriy Petrovning "Oq nilufarlar yurtida" asaridir. Siz hatto kitob mutolaasini xush ko'rmasangiz ham bu kitobni bir marta qo'lga olsangiz, yakuniga qadar bosh ko'tarmay o'qiysiz. Asar Finlandiyaning botqoqlik o'lkasidan oq nilufarlar yurtiga aylanganligi haqida so'zlaydi. O'qiganlaringizdan mamlakat bugungi kundagi taraqqiyotiga qanday yo'llar bilan erishdi, unda kimlar ishtirok etdi va nimalarni eng asosiy omil deb qarashdi, shular haqida bilib olasiz.

Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga Vatanga muhabbat, bajarayotgan ishiga mas'uliyatli munosabat, harbiy xizmatga hurmat tuyg'ularini singdirishda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining alohida o'rnini bor.

YOSHLAR KAMOLOTIDA MUHIM BO'G'IN

o'qitiladi, – deydi tashkilotning Toshkent shahar kengashi raisi v.v.b. Farhod Alimxo'jayev. – Tashkilotlarning harbiy-vatanparvarlik va yoshlar bilan ishlash yo'nalishlarida shahar va tumanlar kesimida bir qancha ma'naviy-ma'rifiy, sport tadbirlari va yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha seminar treninglar o'tkazilib kelinmoqda. Ochiq eshiklar kunida uyushgan va uyushmagan yoshlar uchun turli festival va mahorat darslari o'tkazilmoqda.

Shuningdek, "Yuk ortuvchi transport", "Avtogidropodyomnik", "Yuk krani", "G'ildirakli traktor", "Bitta kovshli ekskavator" kabi murakkab texnikalarni boshqarish mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha kurslar faoliyat ko'rsatmoqda. Xonalar zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlangan.

Tashkilotning Sergeli o'quv sport-texnika klubida esa "Aviamodel", "Raketamodel", "Miltiqdan o'q otish" hamda "Triatlon" va "Yozgi biatlon" sport seksiyalari samarali faoliyat yuritmoqda. Ushbu sport to'garaklariga qatnashib kelayotgan yoshlarning diqqatini jamlash, aqliy jihatdan rivojlanishlari uchun turli metodlardan foydalaniladi. Natijalar esa samarali. Ular tuman, shahar va respublika miqyosidagi musobaqalarda yuqori natijalarga erishmoqda.

– Biz o'z oldimizga mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni yurtga sadoqatli, fidoyi etib tarbiyalash bilan birga, ularda insoniylik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni, ezgu ishlar sari yo'naltirishni maqsad qilganmiz, – deydi o'quv sport-texnika klubi boshlig'i Shoira Mahmudova. – Ayni damda o'quvchilar mukammal bilim olishlari uchun bizda barcha shart-sharoit mavjud. Zamon talabiga mos ravishda avtomobillar, o'quv xonalari zamonaviy, kerakli jihozlari bilan ta'minlangan. O'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlash maqsadida nazariy darslarni mukammal o'zlashtirgan o'quvchilar uchun alohida ajratilgan hududlarda amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. O'quv xonalari ko'rgazma qurollari, kompyuterlar va interfaol doskalar bilan jihozlangan. Bu esa tinglovchilar mashg'ulotlarni puxta o'zlashtirishlari uchun asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Ta'lim oluvchilar bilim samaradorligini oshirish maqsadida dars rejalariga ayrim qo'shimchalar kiritildi, ya'ni o'quvchilar haydovchilarning madaniyati va etikasi fanidan ham bilim oladilar. Ichki imtihonlar ham kompyuter yordamida har bir tinglovchiga alohida tuzilgan variantlar asosida amalga oshiriladi.

Sergeli o'quv sport-texnika klubida yo'llarda to'g'ri va bexatar harakatlanishlari uchun elektron avtomaktab dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu dastur asosida tashkilotga a'zo bo'lmoqchi bo'lgan fuqarolar onlayn tarzda murojaat qilishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda elektron avtomaktab dasturi asosida o'quv mashg'ulotlari va tinglovchilarning davomatlari elektron tarzda kuzatib boriladi. Elektron avtomaktab dasturining afzallik tomonlari, har bir tinglovchiga alohida shaxsiy kabinet yaratiladi va login-parol berilgandan so'ng tinglovchi bu dastur asosida o'z shaxsiy kabinetida dars rejalarini, elektron o'quv qo'llanmalarini qabul qilgan holda elektron testlar bajarishi mumkin.

Bundan tashqari, tashkilot hududida "kichik shaharcha" barpo etilgan. U binoinshootlar, serqatnov yo'llar, yo'l belgilarini va unda harakatlanadigan avtoulavlarni o'z ichiga olgan. Ushbu "kichik shaharcha" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 8-bandi ijrosi yuzasidan aholining keng



berayotgan o'qituvchilar yoshlarda mana shu ko'nikmalarni shakllantirish uchun bor bilim va salohiyatlarini ishga solishadi. Hozirda sport avtoulavini mohirlik bilan boshqara oladigan yoshlarimiz musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritishmoqda. 11–14-fevral kunlari Jizzax shahrida o'tkazilgan avtopoygada o'quvchilarimiz faxrli 1-o'rinni, 14-mart kuni musobaqada esa 2-o'rinni qo'lga kiritishdi.



Bolalar, o'smirlar va chaqiruvgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida ommaviy sport ishlarini tashkil etish va o'tkazishda muhim amaliy ishlar yo'lga qo'yilgan. Qolaversa, tashkilot yoshlar va fuqarolarni mudofaa sohasidagi boshlang'ich bilimlarga o'qitishda va harbiy xizmatga tayyorlashda davlat hokimiyati organlarining yaqin ko'makchisiga aylanib ulgurgan.

Tumanning "Sarixumdon" MFYda "Pnevmatik miltiqdan o'q otish" seksiyasida hudud yoshlari va maktab o'quvchilari bilan muntazam mashg'ulot olib boriladi.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti yoshlarni har tomonlama yetuk, kelajakda shu yurtga nafi tegadigan farzandlar bo'lib yetishishida muhim bo'g'in vazifasini o'tamoqda.

Ro'ziqul OCHILOV,
«Vatanparvar»

Ayni vaqtda tashkilotda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish va ommalashtirish, sport tashkilotlari va jamoalari faoliyatiga ko'maklashish borasida tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Toshkent shahar kengashi tasarrufidagi 13 ta tashkilotda sportning 10 dan ortiq turi bo'yicha bepul seksiyalar faoliyat yuritmoqda. Ushbu seksiyalarda 250 nafardan ortiq yoshlar sport mashg'ulotlari bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. Tasarrufdagi barcha o'quv muassasalarida "B", "BC", "C", "D" va "E" toifalari bo'yicha haydovchilar o'qitiladi hamda amaliy mashg'ulotlar olib boriladi.


– "Vatanparvar" tashkiloti bazasida yoshlar mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan vulkanizatorchi, elektrik-akkumulyatorchi, avtochilangar, avtoelektrik kasblariga

qatlamlari orasida yo'l-transport hodisalarining oldini olish, shuningdek, yo'llarda harakatlanish xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tushuntirish ishlarini olib borish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shayxontohur o'quv sport-texnika klubida 23 ta transport vositasi bo'lib, o'quvchilar "B", "BC" va "C" toifalari bo'yicha o'qishadi. Tashkilotning yana bir e'tiborga loyiq jihati, klubda sport musobaqalarida qatnashish uchun mo'ljallangan avtoulav mavjud.

– Mashg'ulotlarimizda ishtirok etuvchilarning aksariyati mazkur sport avtoulaviga o'zgacha qiziqish bildirishadi, – deydi tashkilot rahbari Faxriddin Muxsimov. – Sport musobaqalari ko'p yoshlarimizni o'ziga jalb qiladi. Bunda, albatta, ularda puxta bilim va amaliy ko'nikma shakllangan bo'lishi lozim. O'quv markazimizda ta'lim





III darajali serjant Olim BERDIYEV

Наврўз байрами сумалак сайиллари билан янада файзли бўлади. Инсонларга поклик, гўзаллик улашувчи бу айём таровати Мудофаа вазирлиги марказий аппаратида ўтказилган сумалак сайлида бўй-басти билан намоён бўлди. Катта дошқозонларда қайнаётган сумалак атрофида янграган миллий кўй-кўшиқлар жаранги оламни тутди. Кўшиқлар рақсларга уланди. Байрам кайфияти, жозибаси кўнгишларга кўчди.

СУМАЛАК САЙЛИ

Ҳа, асрлар оша яшаб келаётган сумалак сайли миллий қадриятларимиз, анъаналаримизнинг узвий қисми сифатида инсонлар ўртасида оқибатни, бирдамликни, аҳилликни тарғиб қилишига ушбу маънавий тадбир

мисолида яна бир бор амин бўлдик. Шунинг учун ҳам бу кун барчага эсда қоларли лаҳзаларни тухфа этди.

Майор Гулнора ҲОЖИМУРОВА

#Malaka

ҲАРБИЙ ПСИХОЛОГЛАР КўНИКМАСИ ОШИРИЛДИ



Бугунги кунда ҳарбий хизматчиларнинг малакасини босқичма-босқич ошириш борасида қатор чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академиясида ташкил этилган «Психологик хизмат фаолияти бошқаруви» йўналишидаги 144 соатлик махсус малака ошириш курси, Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинларида фаолият олиб бораётган ҳарбий психологларнинг касбий билим ва кўникмаларини ошириш ва шахсий таркиб билан психологик ишларнинг олиб борилишини янада жадаллаштиришга қаратилгани билан аҳамиятли бўлди.

Малака ошириш курсларининг ўқув дастури замон талаблари асосида, ҳарбий хизматчилар билан ишлаш жараёнида самара берувчи ва ҳарбий жамоалардаги ахлоқий-руҳий муҳитни янада мустаҳкамлашга йўналтирилган мавзулар бўйича ишлаб чиқилди. Шу асосда академия профессор-ўқитувчилари ҳамда таклиф этилган малакали амалиётчи психологлар томонидан 21 кун

давомида ҳарбий психологлар билан назарий, амалий машғулотлар ва семинар-тренинглар олиб борилди.

Таъкидлаш жоизки, малака ошириш давомида тингловчилар академиянинг 50 мингдан ортиқ китобга эга бўлган ахборот-ресурс маркази адабиётлари билан ҳам яқиндан танишиш имконига эга бўлди.

Ўқув курси якунида ўзлаштирилган дастур асосида назорат синовлари ташкил этилиб, ҳар бири 2,5 баллдан

40 та тест саволи орқали ҳарбий психологларнинг назарий билим даражаси аниқланди. Оғзаки суҳбат эса уларнинг шахсий таркиб билан ишлаш олиш лаёқатларини намоён этди. Албатта, эгалланган билим ва кўникмалар ўз сўзини айтиб, барча тингловчилар синовлардан муваффақиятли ўтди.

Шу кун академия раҳбарияти ва Чегара қўшинлари масъуллари иштирокида ташкил этилган давра

суҳбатида ўқув курси якуни сарҳисоб қилиниб, келгусида эътибор қаратилиши лозим бўлган жиҳатлар хусусида сўз юритилди. Шундан сўнг тингловчиларга ўқув курсини муваффақиятли якунлагани тўғрисидаги сертификатлар тантанали тарзда топширилди.

Фарида БОБОЖОНОВА
ДХХ Чегара қўшинлари

ЙЎЛ-ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИНИНГ

...Наманганда муд-
ҳиш ЙТХ: 16 яшар
«хайдовчи» ҳалок
бўлди;
Фарғонада муд-
ҳиш ЙТХ: чақалоқ
автомобиль
ғилдираклари остида
қолди (видео);
Тошкентда «Малибу»
пиедани уриб кетди,
йўловчи вафот этди...
Хабарлар тас-
масининг бирор кун
жиддий аварияларсиз
бўлмаслигига кўникиб
ҳам қолдик. Қайси
тармоқ каналларини
кузатманг, бир кунда
ўртача 4 ёки 5 та хабар
шу хусусда бўлаётир.



САБАБЧИСИ КИМ?



Давлатимиз раҳбари 11 февраль кунини йўлларда инсон хавфсизлигини таъминлаш чора-тадбирлари юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилишида йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш масаласини кенг муҳокама қилган эди. Йиғилишда Президент йўллардаги ўлимлар сони коронавирус қурбонлари сонидан кам эмаслигини алоҳида таъкидлади.

2022 йил 1 март ҳолатига кўра, юртимизда пандемия бошлангандан буён коронавирус инфекциясидан вафот этганлар сони 1 637 нафарни ташкил этмоқда. Бу кўрсаткич йиллик эмас, балки умумий давр мобайнида ҳисобланган.

Жаҳонда автоуловлар сонининг ошиши натижасида йўл-транспорт ҳодисалари ҳам параллел тарзда кўпайиб бормоқда. Бу эса, ўз навбатида, ЙТХ оқибатида табиий жараёнларсиз инсон ўлимининг сезиларли равишда ошишига олиб келяпти. Ички ишлар вазирлиги Йўл ҳаракати хавфсизлиги бош бошқармаси келтирган маълумотга кўра, 2001 йилда Ўзбекистон Республикасида 1 млн 200 мингта транспорт воситаси бўлган. Давлат статистика қўмитаси тақдим этган маълумотда эса 2021 йил 1 декабрь ҳолатига кўра уларнинг сони 3 млн 775 мингта ташкил этади. Бугунги кунда юртимизда автомобиллар сони ҳар йили ўртача ҳисобда 300 мингтага кўпайиб бормоқда. Яъни ҳар йили мамлакатимизда автоуловлар салмоғи ўртача 14 фоизга кўпайяпти.

КУЧЛИ БЕШЛИК

Республикаимизда тадбиркорлик ва хусусий сектор ривожланаётгани натижасида транспорт воситаларининг сони ортиб бориши қувонарли ҳол. Автотранспортлар кўпайиши инсонларнинг ҳаёт фаровонлиги ошаётганининг бир белгиси, иқтисодиётнинг раванқ топаётганидан далолат, бу – масаланинг ижобий томонлари. Аммо йўл ҳаракати қоидаларига амал қилмаслик натижасида йўлларда йўл-транспорт ҳодисалари содир бўлиш эҳтимолининг ортаётгани эса ташвишли ҳолат. Автотранспорт воситалари ва ҳайдовчилар сони йилдан-йилга кўпайгани

билан, афсуски, уларнинг маданияти, ўзаро ҳурмат ва билим-тажрибаси пасайиб бораётгандек.

Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг маълумотида кўра, ҳар йили дунёда содир бўлаётган йўл-транспорт ҳодисалари оқибатида тахминан 1,25 миллион киши ҳаётдан бевақт кўз юмади. Ташкилотнинг 2020 йилги маълумотида кўра, 15–29 ёшлар орасидаги шахслар ўлимига олиб келувчи энг катта сабаб айнан автомобиль билан юз берадиган ҳодисалар ҳисобланар экан. Шунингдек, статистикада ҳар кун дунё бўйича камида 3–3,5 минг киши ЙТХ натижасида ҳалок бўлиши, уларнинг чорак қисми 15–29 ёш эканлиги, ўлим ҳолатларининг ярми пиедалар, мотоцикл ва велосипед ҳайдовчилари эканлиги келтирилади.

Ҳар йили йўллардаги бахтсиз ҳодисалар туфайли 20–50 миллион киши жароҳатланади. Шунингдек, йўл-транспорт ҳодисалари туфайли давлатлар ялпи ички маҳсулотининг 1 фоизидан 3 фоизигача бўлган қисмини йўқотар экан. Қандай дахшатли рақамлар!

ЮРТИМИЗДА-ЧИ?

Ички ишлар вазирлиги Йўл ҳаракати хавфсизлиги бош бошқармаси 2021 йилда республика йўлларида содир бўлган йўл-транспорт ҳодисалари ҳақида статистик маълумотни эълон қилди. Унга кўра, 2021 йилда жами 10 001 та йўл-транспорт ҳодисаси содир этилган. Натижада 2 426 киши ҳаётдан кўз юмган (бу кунига ўртача 6 нафар инсон ҳаёт билан бевақт видолашади дегани), 9 230 киши турли даражада тан жароҳати олган. Шу билан бирга, 4 698 та ҳолатда пиедалар бевосита иштирок этган. 1 621 та ҳодиса болалар иштирокида содир бўлган.

Жаҳон бўйича умумий ўлим сабабчилари орасида авариялар «кучли бешталик»ка кирар экан. Ушбу бахтсиз ҳодисаларнинг юртимизда кўп ҳолларда бевосита болалар иштирокида содир бўлиши эса бу муаммонинг нақадар жиддийлашиб бораётганини кўрсатиб туради.

ҳаракат иштирокчиси бўлган пиедадами? Ёки бўлмаса, ЙҲХБ ходимидами? Балки, ҳамма муаммо тажрибасиз кишилар қўлига ҳайдовчилик гувоҳномасини тутқазиб юборган муассасададир?

«VISION ZERO»

Швецияда автомобиль ҳаракати кўлами 1950 йилдан бери муттасил ўсиб келмоқда. Мамлакатда 1960–1970-йилларда йўллардаги ўлим ҳолатлари сони ўзининг чўққисига чиқади. Ҳар йили йўл-транспорт ҳодисалари оқибатида шахарларда мингдан зиёд одам ҳалок бўларди. Шундан сўнг ҳукумат қурбонларнинг сонини камайтириш учун чоралар кўра бошлади.

Дастлабки чоралар аввало, ҳайдовчиларга қаратилади. 1975 йили мотоциклчиларга ҳимоя дубулға (шлем)ларини кийиш, автомобилнинг олд ўриндиқларида ўтирганларга эса хавфсизлик камарларини тақиб мажбурий этиб белгиланади. Кўп ўтмай, мазкур талаб орқа ўриндиқдагилар учун ҳам жорий этилади. 2019 йилга келиб энгил автомобилларнинг 99 фоиз ҳайдовчилари ҳаракат вақтида хавфсизлик камарларини тақибни кўнгилли равишда доимий одатга айлантиради. 1980-йиллар охиридан бошлаб болаларни машинада махсус ўриндиқларсиз олиб юриш тақиқланади. 1990 йилда «Vision Zero» – йўллардаги ўлим ҳолатларига тўлиқ тоқатсизлик концепцияси ишлаб чиқилади ва узоқ йиллик синовлардан сўнг, 1997 йилда Швеция парламенти томонидан қабул қилинади. Дастур қабул қилинган, Швеция шахарларида светофорли бурилишлар ўрнига айланма ҳаракатли чорраҳалар қурилади бошланди. Айрим шахарларда пиедалар йўлни диагоналига кесиб ўтиши мумкин бўлган жойлар пайдо бўлди. Баъзи шахарларда пиедалар ўтиш жойлари асосий йўл сатҳидан бироз баландроқ қилиб қурилди. Чорраҳаларнинг қатнов қисми ҳайдовчиларни тезликни пасайтиришга мажбур қиладиган даражада торайтирилди. Қўрилган чора тадбирлар натижаси ўлароқ, 2000 йилдан бери ушбу мамлакат йўлларидаги ўлим ҳолатларининг сони 60 фоиздан кўпроққа қисқарди. Мамлакат расмийлари 2030 йилга бориб ушбу кўрсаткични яна бир ярим баробарга камайтиришни режалаштирган.

ТЎҒРИ ЕЧИМ – РАҚАМЛАШТИРИШ

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, бу соҳада ижобий натижага эришиш учун муаммони кимнингдир чўнтагидан қидириш самара бермайди. Энг тўғри ечим йўллардаги ҳаракатни рақамлаштиришдир. Яна жамоатчилик назорати ҳам. Яъни аҳоли орасида қоидабузарликка мурасимсиз муносабатни шакллантириш зарур. Инсонларнинг йўл-транспорт ҳодисасига муносабати ўзгариши билан бу масала ижобий тўс ола бошлаши тайин. Шунингдек, умумтаълим мактабларида «Йўл ҳаракати қоидалари» дарсини таъсирчан шакллар билан интерфаол усулда ўтиш керак. Бу йўналишда айниқса, йўл-патруль хизмати куч ва воситаларини оқилона тақсимлаб, соҳа вакиллари билан биргаликда ҳаракат қилиш яхши самара беради.

Шерзод ЭГАМБЕРДИЕВ,
«Vatanparvar»

ЙТХГА САБАБ НИМА?

Айни пайтда Ўзбекистон йўлларида кузатилаётган транспорт билан боғлиқ кўнгилсиз ҳодисаларга нималар сабаб бўлмоқда? Аввало, бу саволга жавоб топишда ҳайдовчиларнинг фикри муҳим. Улар эса шундай фикрламоқда:

– йўлдаги ҳаракат белгиларининг номувофиқ ўрнатилиши, тақиқ ва чеклов функциясига эга белгиларнинг ҳаддан зиёд ортиқча кўпайиб кетгани;

– кўча, маҳалла ва уй манзилларининг номи аниқ кўрсатилмагани, ҳаракатланишда ортга қайтиш, манзилни аввалдан режалаштиришга имкон бермаслиги;

– доимий тирбандликлар. ЙҲХБ ходимлари томонидан уларни бартараф этиб турилмаслиги;

– пиедаларнинг элементар йўл ҳаракати қоидаларини билмаслиги ёки уларни менсимай, машиналар учун светофорнинг яшил чироғи ёнганда ҳам ҳаракатда давом этиши;

– ЙҲХБ ходимларининг мақсади жазолаш эмас, балки тартибга чақиртиришдир. Шуни ҳам инобатга олиб иш тутиш мақсадга мувофиқ бўлади...

Шунингдек, баъзи ҳайдовчилар назарида барча муаммо ташқи омил таъсирида юз бераётгандай. Шунинг учун вазиятга пиедалар қандай муносабат билдиришини ҳам келтириб ўтсак адолатдан бўлар. Уларнинг фикри эса мана бундай:

– ҳайдовчиларнинг кўпроқ ЙҲХБ ходими, махсус кузатув камераси ёки радар кўринмаган йўлларда қоида бузишга мойил бўлиши;

– светофорнинг қизил чироғи ёнганда яқинлашиб келаётган улов ҳаракатдан тўлиқ тўхтамай, охишта юриб келиши;

– имконияти чекланган шахслар учун йўлларда инфратузилма шароити яхши эмаслиги;

– пиедалар ўтиш йўлаги талаб ва эҳтиёждан, табиий шароитга кўра ташкил этилмаслиги кўпга ЙТХга сабаб бўлмоқда...

Энди савол туғилади: муаммо қаерда? Ҳайдовчидами ёки бевосита



ТАБИАТ

МУСОБАҚА



“

Бир маромда шивалаётган ёмғир тўсатдан жалага айланди. Паналайдиган жойнинг ўзи йўқ. Кийимларимиз 5 дақиқага бардош бера олмади. Кўп ўтмай фотоаппарат, камералар ҳам ишдан чиқа бошлади. Лекин Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига аъзо мамлакатлар ўртасида ўтказиладиган спорт мусобақаларига Мудофаа вазирлиги терма жамоасини саралаш чемпионати иштирокчилари табиат инжиқларини писанд қилмай, мусобақа шартларини тўлақонли бажариш учун шиддат кўрсатдилар.





Muallif suratga olgan

ИНЖИКЛИКЛАРИ

ИШТИРОКЧИЛАРИ ШАШТИНИ ҚАЙТАРОЛМАДИ

Жиззах вилояти Фориш тумани осмонини эгаллаган тим қора булутлар кўз илғамаетган қуёш оға бошлаганида Ватан ҳимоячиларининг ғайратига тан бергандек ҳовурини босди. Эркак ва аёллар жамоаси ҳам ўзаро, ҳам об-ҳаво ноқулайликлари билан расмана кураш олиб борди. Улар бир неча кун давомида офицерлар уч кураши, тош кўтариш, ҳарбийлаштирилган кросс, 21 км.га ярим марафон югуриш, ПМ-1 ва АК-1 қуролларидан ўқ отиш бўйича беллашди.

Ғолиблик сари қизгин интилишларни кўриб, қўшинларда ҳарбий-амалий ва олимпия спорт турларини ривожлантириш, ҳарбий хизматчиларнинг жанговар руҳини мустаҳкамлаш ва жисмоний тайёргарлик даражасини ошириш, халқаро майдонларда ўтказиладиган чемпионатларга тайёргарлик кўришда бу каби мусобақаларнинг аҳамияти катта эканига амин бўласиз. Мазкур чемпионат армия сафларида хизмат қилаётган энг кучли, энг чаққон ва энг маҳоратли ҳарбий хизматчиларни аниқлаш, уларга эса ўз имкониятларини тўлиқ намоён этиш фурсати бўлди.

– Шу пайтгача мусобақаларда ўзимнинг жисмоний тайёргарлигимни синаб кўришга кўп ҳам журъат қила олмас эдим. Бир неча йил аввал аёллар спартакиадасида қатнашдим. Жамоамиз билан биринчи ўринни эгалладик. Ўшанда ишончим ортди. Бу йил ўз маҳоратимни синаб кўришга қарор қилдим. Ғолиблар сафидан ўрин оламан, деган умиддаман, – дейди Шимоли-ғарбий ҳарбий округдан келган контракт бўйича ҳарбий хизматчи, оддий аскар Сайёра Бойманова.

Офицерлар уч курашида иштирокчилар Макаров пистолетидан ўқ отиш, 100 метр масофага эркин усулда сузиш, 30 ёшгача бўлган офицерлар учун 3 000 метрга, 35 ёшгача бўлган офицерлар учун 2 000 метрга, 40 ёшгача ва ундан юқори ёшдаги офицерлар учун 1 000 метрга югуриш бўйича кучлилар сараланди.

Эркаклар ўртасида тош кўтариш мусобақаси баҳсларга бой бўлди. Бир-бирдан қолишмайди. -60, -65, -70, -75, -80, -85, -90, -90 кг.дан юқори вазн тоифасида даст кўтариш ва силтаб кўтариш бўйича ўзларининг чидамликлари, куч-қувватини кўрсатишди. Ҳарбийлашган кроссда иштирокчилар 3 км масофада қурол билан югуриш, АК-74 русумли Калашников автоматидан ўқ отиш, F-1 гранатасини узоқликка улоқтириш шартларини майдалаб ёғаётган ёмғир остида бажарди.

Ниҳоят, ғолиб ва совриндорлар номи маълум бўлди. Натижаларга кўра, офицерлар уч кураши мусобақасида 1-ёш тоифасида катта лейтенант Н. Раҳматов (Марказий ҳарбий округ), 2-ёш тоифасида майор О. Йўлдошев (Шарқий ҳарбий округ), 3-ёш тоифасида майор Ш. Эшмуродов (Шарқий ҳарбий округ), 4-ёш тоифасида подполковник Шухрат Қосимов (Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юрти) ғолибликни қўлга киритди.

21 км.га ярим марафон югуриш шарида кичик сержант Шохрух Давлатов (Жануби-ғарбий махсус ҳарбий округ) биринчи ўринни қўлга киритган бўлса, ҳарбийлаштирилган кросс мусобақасида курсант Нуриддин Мамасиддиқов (Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юрти) ғалаба қозонди.

Макаров пистолетидан отишда подполковник Жаҳонгир Шайматов (Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юрти), Калашников автоматидан отишда майор Дониёр Жуманов (Тошкент ҳарбий округи) ҳамда кичик сержант Азиза Ҳабибова (Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юрти) биринчиликка сазовор бўлди.

Тош кўтариш мусобақасида -60 кг вазн тоифасида муддатли ҳарбий хизмат оддий аскари Феруз Қиёмов (Жануби-ғарбий махсус ҳарбий округ), -65 кг вазн тоифасида кичик сержант Дилбек Абдуллаев (Шарқий ҳарбий округ), -70 кг вазн тоифасида кичик сержант Фазлиддин Маждов (Шимоли-ғарбий ҳарбий округ), -75 кг вазн тоифасида контракт бўйича ҳарбий хизматчи, оддий аскар Забардаст Сайдуллаев (Шарқий ҳарбий округ), -80 кг вазн тоифасида муддатли ҳарбий хизмат оддий аскари Сардор Исмоилов (Жануби-ғарбий махсус ҳарбий округ), -85 кг вазн тоифасида катта сержант Жуманазар Абдиев (Қуролли Кучлар академияси), -90 кг вазн тоифасида кичик сержант Аваз Йўлдошев (Жануби-ғарбий махсус ҳарбий округ), +90 кг вазн тоифасида контракт бўйича ҳарбий хизматчи, оддий аскар Жавоҳир Ўринбоев (Жануби-ғарбий махсус ҳарбий округ) 1-ўринни эгаллади.



Капитан Азиз НОРҚУЛОВ,
«Vatanparvar»



“FAQIRLIK NIMADAN HOSIL O’LUR?”

Filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimov ta’kidlaganidek, jadidchilik g’oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari po’panak bosib, biljirab ketgan o’rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momoguldurak bo’lib, millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo’yilgani haqida bong urdi.

Darhaqiqat, o’tgan asrning boshlarida Turkiston tarixidagi eng muhim voqelik bo’lgan jadidchilik harakati milliy uyg’onish yo’lida momoqaldiroq shiddatdek hayotimizga kirib keldi. Ko’zimizni ochish, qalbimizni Turkistonni uyg’otish uchun qora bulutlar egallagan osmonimizda chaqindek porladi. Bu harakatning mustaqillik yo’lidagi kurashi bizga xaspo’shlab ko’rsatilganini ziyolilarimiz baralla aytishiga istiqloqla erishganimizdan so’ng imkon tug’ildi. Ya’ni sho’ro mafkurasi ta’sirida jadidlarning ma’rifatchiligiga asosiy e’tibor qaratilib, Vatan, xalq ozodligi yo’lidagi kurashi, g’oyalari bilan bog’liq faoliyati chetlab o’tilgandi. Negaki, ijtimoiy hayotga madaniy-ma’rifiy harakat sifatida kirib kelgan jadidchilik keyinchalik keng ijtimoiy harakatga aylandiki, uning a’zolari bo’lgan Turkiston taraqqiyparvarlari asosiy maqsadini xalqini mustaqillik va ozodlikka olib chiqishda ko’radi.

Xalqning, Turkistonning hayot-mamot masalasi haqida bong urilishida jadidlar asos solgan matbuotning roli beqiyos bo’lgan. Xususan, bu borada jadidlarning sevimli nashri bo’lgan “Sadoyi Turkiston” gazetasi faoliyatini alohida ta’kidlash joiz. Bu milliy gazeta jamoasiga



ma’rifatparvar Ubaydulla Asadullaxo’jayev (1885–1938-yillar) muharrirlik qiladi. Gazetani Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi jadidlar bilan tashkil etadi hamda Toshkent shahrida 1914-yilning 4-apreldan chop eta boshlaydi.

Ma’lumki, “Sadoyi Turkiston” gazetasi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy va axloqiy mavzularda mahalliy xalqni qiynayotgan muammolarni dadil olib chiqishi hamda millat va milliylik masalasiga eng ko’p e’tibor berishi orqali jadid matbuoti ichida ajralib turgan.

Shu o’rinda mulohazamizni mazkur gazetada bosilgan bir material tahlili misolida davom ettirsak. Aniqrog’i, gap “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 10-avgust sonida bosilgan Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub “Faqirlik nimadan hosil o’lur?” nomli maqola haqida ketyapti. Maqola shunday boshlanadi: “Jigarning qon tomchilarin kundan kun ziyod taraqqiy ettirmoqda bo’lgan illatlarning eng birinchi moddasi nimadir, deb so’rasangiz, vahshat, g’aflet va jaholat deb javob olursiz. Bu uch qish oylari ila tan, aql va ko’zlari muzlab, sovuq urgan daraxtlar kabi mevasiz qolgan ota va bobolarimizning mukofotlaridan iborat bo’lib chiqdi”.

E’tibor bergan bo’lsangiz, Hamza maqola avvalida so’z o’yini qilib, “vahshat, g’aflet va jaholat”ni qish faslining uch oyiga mengzayapti. Millatning fojiasida mana shu uchta illatni alohida ta’kidlamog’da. Jadid bobomiz jismimiz, shuurimizning muzlab qolishini g’aflet va jaholatga botib, umrguzaronlik qilayotganimizda deb biladi. Aynan shu g’aflet, jaholat millatni qay darajada xor-u zor etayotganini muallif maqola davomida shunday yozadi:

“... Yigirma yil avval, bosturma tagida, poxol ustida chaksa jo’xorini ikki oy go’ja oshi qilib ahl-u ayollari ila ichub, bo’zdan yaktak va lozim, olachadan to’n kiyub, haftada uch kun sayr, to’rt kun na’lchilik qilib, shul tariqa bir hunar ila bo’lsa ham taxmini maishat mukammallanub, o’zlarining doxiliy va xorijiy fisq-u fasod, shar’u shuurlariga yetishub, yana besh pul, o’n pul yonlarida qolar ekan. Ajabo, nima bo’lmishdirki, ul ustalarning ko’plari gado bo’lub ketgandirlar”.

Aholi turmush darajasining bunday keskin pasayishi, qashshoqlashuv muammosi maqolada tahlil etilib, bunga 1912-yildan ko’plab kosiblar zarar ko’rgani, oqibatda mardikorlik qilishiga to’g’ri kelayotgani, kuchsiz mardikorlarni esa bozor olmay, gadoylar ortgani sabab qilib keltiriladi. “1914-yil ramazonida gadoylar boshqalarga qaraganda yuzga qirq protsent bo’lub ketgan, desak ham lof bo’lmaydir”, deb yozadi muallif.

Buning sabablari nimada? Bu savolga javob izlaganimizda, avvalo muammoning siyosiy va ijtimoiy jihati qalqib chiqdi. Bular quyidagi omillarda aks etadi:

- ▶ Turkistonni g’arb usulida zo’rlik bilan zamonaviylashtirish asosida doimo qoloqlikda ushlab turishga harakat qilindi;
- ▶ mamlakatdagi ishlab chiqarishni chor Rusiyasi markaziy sanoat hududlari talab va ehtiyojlariga bog’liq qilib qo’yildi;
- ▶ kapitalistik ishlab chiqarish o’choqlari barpo etilishi natijasida Turkistonda sanoat tovarlarining raqobati orta borib, hunarmandlik va kosibchilik yemirila boshlandi;
- ▶ o’lka xo’jaligi chor Rusiyasi iqtisodiyoti uchun xomashyo yetishtirishga bog’liq qilib qo’yildi.

Sanab o’tilgan masalalar Turkistonning iqtisodiy tobeligini yanada kuchaytirdi. Kosibchilik, hunarmandlik bilan bog’liq ishlab chiqarish shu sababli tanazzulga uchrab bordi. Hamza esa muammo yechimi sifatida ilmni, ma’rifatni ilgari suradi va “Bu xo’rliklarning ilmsizlikdan kelganin shoyad o’ylagan va aqlga solub qaragan kishi bilur. Mana siz ila insonlikda barobar bo’lub, ilm o’qigan odamlarni ko’rasizmi? Sizdan davlati taraqqiy etmagan bo’lsa ham, siz kabi xor-u zor bo’lmasdan bir falon ila maishat o’tkarub kelmakdadir”, deydi.

Muallif kuyunchaklik bilan aytgan bu fikrlari orqali maqola avvalida aytgan g’afletdan qutilish, ko’zimiz, qalbimizni ochish uchun ilm-fanga e’tibor qaratish, rivojlanayotgan davlatlardan o’rganish masalasini ilgari suradi.

Millat uchun qish oyi bo’lgan jaholat masalasi maqolada istibdodga, zulmga qarshi birlashtiruvchi muhim kuch bo’lgan islom negizlari, axloq va qadriyatlar jamiyatda buzila boshlagani bilan izohlanadi. “Xoliq va roziqi haqiqiylari bo’lg’an janobi bori ta’olloning buyurgan besh vaqt sajdasidan bo’yin tortgan mard yigitlar chorak gaz chit uchun o’zlariga o’xshagan bir xudo bandalashuviga, ijtimoiy tuzilmalar zaiflashuviga va oqibatda millatni qoloqlikka mahkum etishga qaratilgan makkor siyosati mevasi edi. Buni anglagan Hamza faryod chekib yozadi: “Oh, qani islomiyat ahkomi? Koshki ul zakot beruvchi zotlar beradigan bir necha vershuk chitlarini minnatsiz va ozorsiz bersalar edi!”

Muallif qoloqlik, nodonlik va jaholatdan xalos bo’lishning yo’li sifatida millatni taraqqiyot va ma’rifat sari chorlashga, najot ilmda ekanligini aytishga chog’langandek ko’rinsa-da, faqirlikdan qutilish uchun zulmga qarshi kurashga, ya’ni istiqloqla chorlaydi, nazarimizda. Buni maqola oxiridagi “mundan ham battar kunlarga qolmasam edi?” degan jumlar ham isbotlab turibdi.

Alijon SAFAROV,
O’JOKU kafedra mudiri,
filologiya fanlari bo’yicha
falsafa doktori (PhD)

#Ehtirom

ABDULLA ORIPOV IZDOSHLARI



Onlayn videokonferens-aloqa orqali o’tkazilgan tanlovda ishtirokchilar ikkita shart bo’yicha o’zaro bellashdi. Birinchi shart savol-javob deb nomlandi. Unga ko’ra, har bir ishtirokchiga atoqli shoir va davlat arbobi Abdulla Oripovning hayoti va ijodiga oid uchtadan savol berildi. Javob uchun besh soniya vaqt ajratildi.

Dastlabki shartdayoq bilimdonligi va faolligini namoyon etgan Vatan posbonlari ikkinchi – erkin mavzu shartida ham g’oliblik uchun ana shunday ishtiyok bilan harakat qildi. Ushbu shartda ular she’r, monolog, sahna ko’rinishi kabi badiiy chiqishlar orqali o’z iqtidori, iste’dodini shu bilan birga ifodalari o’qish san’atini namoyish etishdi.

Tanlov ishtirokchilarining chiqishlari Abdulla Oripovning rafiqasi, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi Hanifa Mustafoz qizi hamda O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir Shodmonqul Salom tomonidan baholab borildi. Qizg’in va murosasiz o’tgan bellashuv so’ngida g’oliblar taqdirlandi.

Mayor Gulnora HOJIMURODOVA

Havo hujumidan mudofaa qo’shinlari va Harbiy havo kuchlari qo’mondonligi tizimidagi harbiy qismlar o’rtasida “Abdulla Oripov izdoshlari” nomli ijodiy ko’rik-tanlov bo’lib o’tdi.



ЎЗБЕК ҚИЗИНИНГ БОТИРЛИГИ

Иккинчи жаҳон уруши йилларида матбуотнинг катта сафарбарлик кучини яхши билган совет давлати раҳбарлари расмий давлат газеталаридан ташқари, фронт газеталарини ҳам чиқаришга қарор қилган.

Уруш бошланган дастлабки кунларда, аввал ҳарбий округлар ва айрим армиялар ҳузурида озададли газеталар чиқарила бошланди. 84x60 форматдаги 4 саҳифали бу газеталар қоғоз танқислиги сабабли 1941 йил 4 октябрдан бошлаб қисқартирилди. Аммо газеталар сони фронтларнинг сонига қараб кўпайтириб берилди ва 1941 йилда 15 та, 1942 йилда 19 та, 1943 йилда 18 та, 1944 йилда 15 та, 1945 йилда эса 16 та фронт газетаси нашр этилди.

1942 йил февралда Кавказ frontiда илк бор грузин, арман ва озарбайжон тилларида, кейинчалик бошқа тилларда ҳам фронт газеталарини чиқариш ишлари йўлга қўйилди. Ўрта Осиёдан урушга сафарбар қилинган йигитларнинг аксар қисми Ғарбий фронтга юборилганлиги учун фронтнинг қошида ўзбек, қозок, тожик ва туркман тилларида газеталар нашр этила бошланди ва улар ҳафтада 2 марта, стандарт қоғознинг ярим форматда, 4 саҳифали бўлиб чиқди. Жами уруш йилларида миллий тилларда чиққан фронт ва дивизия газеталарининг умумий сони 100 дан ортиқ бўлган.

Рустамбек Шамсутдинов узок йиллар давомида Иккинчи жаҳон уруши фронтларида ўзбек тилида чоп этилган газеталарни ўрганди ва 3 жилдлик «Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари» китобини чоп этди. Рустамбек Шамсутдинов биринчи Украина frontiда ўзбек тилида 1944–1945 йилларда чиқиб турган «Ватан шарафи учун» газетасини ўрганиб чиққан. Ушбу газетанинг 1944 йил 16 январдаги 3-сониди бухоролик қиз Раҳима Алимованинг фронтдаги жасорати ҳақида ёзилган.

Раҳима Алимова жанг қилаётган ўқчи полки командири подполковник Саввин у тўғрисида «Ватан шарафи учун» газетасида қуйидагиларни ёзган. «...Улуғ Ватан уруши майдонларида: рус, украин, беларус, қозок, грузин, ўзбек, тожик, туркманлар, қирғиз ва бошқа қардош халқларнинг довурак йигитлари билан бир қаторда, кўпгина жасур қизларни ҳам тез-тез учратиш туриш мумкин. Ватанимизнинг бу оташин ватанпарварлари ҳам фашист босқинчиларига қарши олиб борилаётган курашимизда мардонавор иштирок этмоқдалар.

Мен командирлик қилаётган полкда ўз номларини шон-шараф билан қоплаган ўзбек йигитлари орасида бир неча ўзбек қизлари ҳам бор. Украина учун олиб борилаётган ҳужумкор жангларда Бухородан келган Раҳима Алимова деган қиз, айниқса, қаҳрамонлик кўрсатмоқда.

Ўқчи ротанинг санитария инструктори бўлиб хизмат этаётган бу жасур ўзбек қизи на ҳаводан қилинган ҳужумдан, на душман томонидан уч-



ган ўқдан, на минадан қўрқадди. Унга ҳеч нарса писанд эмас. 1943 йилнинг 18 июлидан 28 июлигача Шимолий Донес дарёси қирғоқларида Донбасс учун шиддатли жанглар бўлиб ўтди. Ана шу вақтда Раҳима Алимова пулемёт ва миномёт ўти остида 97 нафар ярадор жангчи ва офицерга шошилинич тиббий ёрдам кўрсатди ва уларнинг кўпчилигини жанг майдонларидан хавфсиз ерга олиб чиқди. Ҳаёт қолган жангчи ва офицерлар Раҳима Алимовага ҳали-ҳали ўз миннатдорчиликларини билдиради. Бу жанглар вақтида кўрсатган қаҳрамонлиги учун Раҳима Алимова «Жасурлик учун» медали билан мукофотланди.

1 сентябрдан 21 сентябргача давом этган 20 кунлик ҳужум жанглари вақтида Раҳима Алимова мардонавор ҳаракат қилди. Бу сафар у 30 жангчи ва офицерни қурол-яроғи билан жанг майдонларидан олиб чиқиб, зарур бўлган тиббий ёрдамни кўрсатди. Шундай пайтлар ҳам бўлдики, Раҳимахоним ҳам санитар, ҳам санитария инструктори, ҳам фельдшер вазибаларини сидқидилдан бажарди. Полкимиздаги ҳамма жангчи ва офицерларнинг Раҳимахонни чин қалбларидан севишларига, самимий ҳурмат қилишларига сабаб шудир.

Ўртоқ Раҳима Алимова жанг майдонларида фақат тиббий ходим сифатидагина эмас, балки оддий жангчи сифатида ҳам ном чиқарди. Алимова бир тўда разведкачилар билан бирга душман позициясининг орқа томонига ўтди. Совет разведкачиларининг келишини сезиб, фашистлар жанг бошлаб юборди. Ана шу жангда жасур қиз ўнга яқин фашистни қириб ташлади. Яна бир жангда немисларга қарши ҳужумга ўтди. Шунда Раҳимахон олдинги сафга чиқиб, жангчиларни илгари бошлади ва шахсан ўзи 25 фашистни қириб ташлади. Ушбу жангдан кейин ўртоқ Алимова «Қизил Байроқ» ордени билан мукофотланди.

Раҳима Алимованинг қалби улуғ она Ватанга оташин меҳр-муҳаббат туйғуси, душманга қарши чексиз қаҳр-ғазаб ва нафрат ҳисси билан тўлган. У жонажон Ўзбекистон учун, серқуёш республиканинг бахтиёр халқи учун, ёр ва биродарларимиз учун жанг қилмоқда, янада порлоқ келажак учун немисларни беаёв қирмоқда», деган сўзлар билан ўз сўзини тугатган полк командири. Унинг сўзларидан бизга шу нарса маълум бўладики, Раҳима Алимова нафақат тиббиёт ҳамшираси лавозимида, балки, кези келганда, пулемётчи сифатида ҳам жанговар ҳаракатларда иштирок этган.

Зинур БОЗОРОВ,
«Шон-шараф» давлат музейи
илмий ходими

РУHIЙ КЕЧИНМАЛАР ҚАНДАЙ ТА'СИР ҚИЛАДИ?



Yurtimiz taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar psixologiya sohasi mutaxassislariga ham mas'uliyatli vazifalar yukladi. Fuqarolarning ruhiy holatini tahlil etib, baxtli bo'lishiga to'sqinlik qilayotgan psixologik muammolarni bartaraf etish muhim masalalardan biridir.

Shu ma'noda ruhiy kechinmalarning ijobiy yoki salbiy bo'lishi bevosita shaxsning psixik holatiga va u voqelikni qanday idrok etishiga bog'liq. Ta'kidlash kerakki, psixik holatlar uzluksiz ravishda o'zgarib turadi. Bu o'zgarish bevosita shaxsning bajarayotgan roli, yosh xususiyatlari hamda milliy va etnik omillar asosida shakllangan psixologik qiyofasiga bog'liq. Ruhiy kechinmalar esa hissiyotlarda namoyon bo'ladi.

Xulq-atvor, muomala subyektii psixik faoliyatda darak beruvchilik, baholash, boshqaruvchilik kabi uchta muhim funksiyani bajaradi.

Kishi sezgi, idrok qilgan, xotirasida qolgan taassurotlariga hech qachon befarq qaramaydi. Insonga berilgan har qanday ta'sir yoqimli yoki yoqimsiz hissiyotni qo'zg'atadi, faoliyatga undaydi yoki to'xtatadi. Natijada insonda turli ruhiy kechinmalar kechadi. Kishi tashqi yoki ichki ta'sir tufayli to'lqinlanadi, qo'rqadi, shubhalanadi.

Subyektiv hisoblangan his-tuyg'ular ehtiyojlarning qondirilishi jarayoni qanday kechayotganining belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Hissiy portlash ro'y bergan taqdirda uning keyingi bosqichlarida kishi o'zini tuta olmay qoladi, oqibatini o'ylamaydi, aql-hushini yo'qotib qo'yadi. So'ngra pushaymon yeydi, ba'zan sodir bo'lgan voqealar tushida yuz berganday esga tushadi. Tormozlanish miya qobig'ini egallab oladi.

Ruhiy kechinmalarning ko'rinishi sifatida namoyon bo'luvchi hissiyotning yana bir turi kayfiyatdir. U ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi. Kayfiyat ko'tarinki yoki qayg'uli va hokazo tarzda bo'ladi.

Katta leytenant Jamshid HАBIBOV,
Markaziy harbiy okrug harbiy psixologi

Qurolli Kuchlar tarkibida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning umumiy soni, armiyani ta'minlash xarajatlari, yangi texnika bilan jihozlash va boshqa ma'lumotlar yopiq xarakterga ega bo'lganligi bois, ma'lumotlarni tahlil qilishda ochiq ma'lumotlardan foydalanildi.

M a v j u d ma'lumotlar tahlili Markaziy Osiyo davlatlari Qurolli Kuchlari harbiy salohiyatining turli darajalarga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Mintaqadagi davlatlarning umumiy aholisi taxminan 75 million kishi ekanligini hisobga olsak, Qurolli Kuchlar soni nisbatan kichik bo'lib, u 220 ming kishini tashkil qilmoqda. Shu bilan birga, ularning uchdan bir qismi paramilitar qo'shinlar (*Milliy gvardiya, chegara xizmati va boshqalar*) hisoblanadi.

"Global Firepower Index – 2021" reytingiga ko'ra,

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING HARBIY SALOHIYATI

harbiy kuch bo'yicha O'zbekiston Respublikasining armiyasi dunyoda 51-o'rinni, Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa 1-o'rinni egalladi. Ushbu reytingda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'ringa Qozog'iston (61), 3-o'ringa Turkmaniston (86), 4-o'ringa Qirg'iziston (93) va 5-o'ringa Tojikiston (99) qo'yilgan.

Amalga oshirilayotgan harbiy mashqlar va ishlab chiqarilayotgan harbiy texnika xaridlarining ssenariylari mintaqa mamlakatlarining Qurolli Kuchlari mahalliy urushlarni olib borishning zamonaviy usullari haqida fikr yuritib, o'z strategiyalarida Afg'oniston, Iroq va Suriyadagi harbiy mojarolar tajribasini hisobga olmoqda. O'rganilgan ma'lumotlar tahliliga ko'ra, O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'iston Qurolli Kuchlari zirhli transport vositalari soni bo'yicha mintaqa mamlakatlari orasida yetakchi hisoblanadi. E'tiborlisi shuki, Tojikiston va Qirg'iziston hududining tog'li tabiatini hisobga olgan holda, bu kabi texnikalarni ko'p miqdorda saqlash maqsadga muvofiq bo'lmaganligi sababli ushbu davlatlarda tanklar soni sezilarli darajada ko'p emas.

So'nggi yillardagi mahalliy urushlarning tajribasi qo'shinlarning eng qudratli turi – o'ziyurar va reaktiv artilleriya tizimlari ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu tizimlar aviatsiya qurollaridan ancha arzon hisoblanib, dushman bilan to'g'ridan to'g'ri to'qnashuvga kirishmasdan, yopiq pozitsiyalardan zarar yetkazish imkoniyatiga ega. Jangovar harakatlarda tezkor va kuchli talafot

yetkazadigan jangovar samolyotlar mintaqada faqatgina O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston Qurolli Kuchlarida mavjud bo'lib, son jihatidan Qozog'iston eng ko'p jangovar samolyotlarga ega davlat hisoblanadi. Qirg'iziston va Tojikistonda kam miqdorda transport samolyotlari mavjud. Samolyotlardan foydalanish cho'llar va cho'l sharoitidagi hududlarda samarali hisoblanib, tog'li hududlarda asosan vertolyotlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki vertolyotlar yordamida tog'li hududlarda juda katta operatsiyalarni amalga oshirish shaxsiy tarkibni qurol-aslaha va o'q-dorilar bilan ta'minlash mumkin. Shunday qilib, Harbiy havo kuchlari yo'nalishda eng ko'p zarba vertolyotlari bo'yicha Qozog'iston, transport vertolyotlari bo'yicha esa O'zbekiston mintaqada yetakchilik qilmoqda.

Harbiy harakatlarda ishtirok etish bo'yicha Tojikiston mamlakat ichidagi fuqarolar urushini hisobga olgan holda eng katta tajribaga ega bo'lib, aynan shu urush davrida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Qurolli Kuchlari ham Tojikistondagi tinchlikparvar operatsiyalarda ishtirok etgan. Bundan tashqari, Qozog'iston Iroqdagi harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmasdan minalarni zararsizlantirish bo'yicha yordamchi operatsiyalar doirasida, Qirg'iziston Batken viloyatidagi terrorchilar bilan to'qnashuvlarda, O'zbekiston Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining tog'li hududlaridagi qurolli terroristik guruhlariga qarshi

kurashish bo'yicha amaliy tajribaga ega. Turkmaniston esa neytral maqomga ega bo'lganligi sababli, faqat mamlakat chegarasidagi turli to'qnashuvlarda ishtirok etib, xorijiy operatsiyalarda ishtirok etmagan.

Davlatlarning harbiy xarajatlari to'g'risidagi Internet ma'lumotlariga ko'ra, mintaqa davlatlari orasida eng yirik harbiy byudjetni Qozog'iston (4 milliard AQSh dollari), keyingi o'rinda O'zbekiston (taxminan 1 milliard AQSh dollari), undan keyin Turkmaniston (200 million AQSh dollari), to'rtinchi o'rinda Qirg'iziston (20 million AQSh dollari) va oxirgi o'rinda Tojikiston (16 million AQSh dollari) Qurolli Kuchlari tashkil qiladi. Shuningdek, Qirg'iziston va Tojikistonning iqtisodiy salohiyati tufayli Qurolli Kuchlarida keng ko'lamli islohotlar o'tkazish hamda qurol-aslaha va harbiy texnikalarni modernizatsiya qilish imkoniyati biroz cheklangan.

Markaziy Osiyo davlatlari harbiy salohiyatining turli jihatlarini tahlil qilib, bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'iston Qurolli Kuchlari mintaqadagi eng jangovar qobiliyatga ega armiya deb xulosa qilish mumkin. Hozirgi kunda mintaqa uchun asosiy xavf sifatida 300–500 kishidan iborat jangari guruhlarining davlatlar hududiga kirib kelishga urinishlari ehtimolini hisobga olib, Markaziy Osiyo davlatlarining bugungi kundagi harbiy salohiyati uning hududiy yaxlitligini saqlab qolish uchun yetarli deb hisoblash mumkin.

Bekzod SAIDMURODOV,
mustaqil izlanuvchi

#Ayyom shukuhi

BAYRAM TAROVATI



"Assalom, Navro'z – yangilanish, mehr-oqibat va qadr-qimmat ayyomi!" degan g'oya ostida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida Navro'z umumxalq bayrami tantanalari keng miqyosda nishonlandi.



Ana shunday bayram tadbirlari Mudofaa vazirligining Toshkent shahri, Navoiy, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida joylashgan harbiy qismlarida ham ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

Bayram tadbirlari davomida bahoriy milliy taom – sumalak tayyorlanib, atrofida kuy va qo'shiqlar yangradi, kurash, chillak, arqon tortish kabi milliy o'yinlar o'tkazildi. Shu kuni bo'linmalar o'rtasida osh pishirish hamda bahoriy taomlar ko'rik-tanlovlari ham tashkillashtirildi.

Tadbirning badiiy qismida raqs, milliy urf-odat va an'analimiz aks ettirilgan turli qiziqarli sahna ko'rinishlari namoyish etildi. San'atkorlar tomonidan yangragan kuy-qo'shiqlar barchaga xush kayfiyat ulashdi.

Yakunda sport musobaqalari va tanlovlar g'oliblari esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Mayor Farruxbek SOTIVOLDIYEV





ЖУРЪАТ

онажоним, яқинларим бағрида бўлиш насиб этарми-кан?» Ўзи истамаган ҳолда йигитнинг мужгонларига ёш тўлди. Бироқ дарҳол ўзини қўлга олди. Ахир энди у ёш йигитча эмас, йигирма ёшдан ошган гвардиячи катта сержант, сапёрлар бўлинмаси командири.

Уйқуси қочган Сотим яна хаёлга берилди. Ана, ўн ёшдан ошган чайир болакай Хива ва унинг атрофидаги қишлоқларда юриб сувоқчилик, печка қуриш, пахса девор кўтариш каби устачилик ишларида отасига ёрдам беряпти. Йиллар ўтиб, ўн беш ёшда Ашхобод яқинидаги Сержантлар тайёрлаш мактабига ўқишга кирди. Севган соҳангни эгаллашга нима етсин?! Қаттиққўл командир устозлар, назарий, амалий машғулотлар, Қорақум-Небит тоғи яқинида жойлашган полигондаги синов машғулотлари... Буларнинг барчаси йигитнинг моҳир сапёр бўлиб шаклланишида катта ўрин тутган.

МУҲИМ ТОПШИРИҚ

– Сержант Нурметов?

Сотимнинг хаёлини ертўла эшиги олдида уни паст товушда чақираётган батальон командири майор Родителев бўлиб юборди. У қўли билан ортидан юришга ишора қилди. Командирнинг ҳаракатларидан жангчиларнинг уйқусига халақит бергиси келмагани кўриниб турарди. Иккиси унинг ихчамгина ер ости штабига кирди.

– Сержант, қарасам, ухламай хаёл суриб ётибсан, бўлинмангга юкланган муҳим топшириқни етказа қолай, дедим, – мақсадга ўтди батальон командири. – Жангга тайёрмисан?

– Худди шундай, ўртоқ майор!

– Аммо бу галги топшириқ ўта хавфли, – Сотимнинг елкасига қоқиб қўйди у. – Ғалабага оз қолганда айрилиқ бўлишини истамайман, аммо... – Вазифамиз қай даражада хавфли бўлишига қарамай, қанчадан-қанча йўлу кўприк, шаҳару қишлоқларни мина ва бомбалардан тозаландик. Қўшинлар ҳужумига йўл очиб бердик. Бу сафар ҳам удалаймиз, кўнглингиз тўқ бўлсин, ўртоқ майор.

– Гап вазифа оғирлигида эмас, шароитда. Қўл остингдаги йигитлар соҳанинг профессионаллари, бундан кўнглим тўқ. Лекин сизлар минадан тозалайдиган ҳудуд... кел, яхшиси, харита орқали тушунтираман, – улар қўлда ясалган қўполгина стол устидаги харитага яқинлашди. – Кёнигсберг шаҳрини (ҳозирги Калининград) катта ҳарбий техникага эга, тўлиқ қуролланган душман қўшинлари қаттиқ туриб ҳимоя қиляпти. Сўнги икки кун ичида фашистларнинг қолган-қутган кучлари ҳам шаҳарга бирлашишга эришди.

Разведканинг аниқ маълумотларига қараганда, ҳозир шаҳарда босқинчиларнинг 150 мингга яқин қўшини бор. Душман кучли ва мустақам позицияга эга. Шаҳарнинг асосий қисми сув билан ўралганлиги

учун уни штурм билан олиш мушкул, талафот кўп бўлади. Фақат бир йўли бор, яъни шаҳарнинг жануби-шарқ томонидан оқиб ўтадиган дарё бироз торайган, мана бу ерида, – қўлидаги таёқчани муҳим нуқтада тўхтатди майор, – шаҳарга олиб борадиган кўприк жойлашган. Дарё суви анча пастдан оқгани учун кўприк остида пиёдаларга мўлжалланган яна битта кўприк бор. Шубҳасизки, ҳар иккала кўприк ҳам миналаштирилган. Вазифаларинг – мана шу кўприкларни минадан тозалаш.

– Албатта, удалаймиз, ўртоқ майор! – харитадан кўзини узмай жавоб берди сержант Нурметов.

– Вазифанинг қалтис томони кўприклар душман кафтида тургандек очик ерда. Кўпчиликни юбориб бўлмайди. Фашистлар сезиб қолса, кўприкларни портлатиб юбориши аниқ. Шунинг учун кўмондон билан узоқ кенгашиб, сенинг бўлинмангга шу вазифани топширишга қарор қилдик. Бу қарорга келишимиздан аввал кўмондон сени шахсий варақанг билан қизикди. Севастополь, Ворошиловград, Минск, Донбасс шаҳарларини душмандан озод этишдаги жасоратинг, ўн олтита душман тўпини қўлга киритишда кўрсатган мардлик ва қаҳрамонлигинг, учинчи ва иккинчи даражали «Шуҳрат» орденлари олганинг... Хуллас, сенга ишонч билдирилди.

Операцияга қайтадиган бўлсак, топшириқни пухта ўрганиб чиқишимиз, майда икир-чикирларгача ҳисобга олишимиз шарт. Душманнинг кўприкка яқин мудофаа линияси заифроқ, юзга яқин аскар бор. Уларни даф қилиб, кўприкни олиш ва минадан тозалаш учун фашистларнинг асосий кучларини чалғитиш керак. Яъни олис масофага отадиган тўплардан сизлар кўприкка етиб бургунларингга қадар душманнинг асосий позициясига ҳужум уюштирилади. Бу пайтда бўлинманг жангчилари босқинчиларнинг олд позициясини ишғол қилади. Маълум вақт ўтгач, келишилган ҳолда артиллериячилар яна ўқ ёғдиради. Навбатдаги ҳужум давомига кўприклар миналардан тозаланиши керак. Тушуниб етганингдек, бу вазифа оғир ва хавфли.

– Операция қачон бошланади?

– Қўмондон буйруғига асосан, бугун тунда бошлаймиз...

«КЁНИГСБЕРГ» ОПЕРАЦИЯСИ

Сапёрлар узоқ маслаҳат қилишди, душман позициясининг ҳар бир қаричи синчиклаб кузатилди. Шартли сигналлар, ҳужум вақти тўпчилар билан келишиб олинди. Топшириқнинг ҳар битта босқичи, операция учун белгиланган вақтнинг ҳар бир дақиқаси ҳисоблаб чиқилди. Муҳим топшириқ олдида ниҳоят Сотим Нурметовнинг бўлинмаси сафланди.

– Азаматлар, ҳозир менга жуда оғир, чунки сизларни ўта хавфли топшириққа юборяпман, – тўққиз нафар сапёр жангчига юзланди майор Родителев. – Менга таскин берадиган бир нарса борки, бу – сизларга бўлган ишонч. Улимни ҳам доғда қолдириб, жанговар топшириқни удалашингизга ишонаман! Сапёр хатога йўл қўйиши мумкин эмас, буни ҳаммангиз яхши биласиз. Армиямизнинг ғалабаси, минг-минглаб жангчиларнинг

ҳаёти сизга боғлиқ... Йигитлар, барчангизга омад ёр бўлсин! – батальон командири ҳар бир жангчи билан қучоқлашиб хайрлашди.

1945 йил апрель бошида «Кёнигсберг» операцияси бошланди. Катта сержант Сотим Нурметов ва саккиз нафар сапёр эмаклаганча тун бағрига сингиб кетди...

Маълум вақт ўтиб, буйруққа асосан, артиллериячилар душманнинг асосий позициясига ҳужум бошлади. Ярим тунда тўплар наъра тортди. Уларнинг гумбурлашидан ерлар титрар, Кёнигсберг шаҳри чақмоқ чаққандек ёришиб кетар, тутун ва аланга кўтариларди. Бу орада тўққиз нафар сапёр душманнинг олд позициясига етиб борганди.

– Тайёрланинг, буйруғим билан душман хандақларига граната улоқтирамин! – қўл остидагиларга пичирлади Нурметов.

– Тайёрмиз!..

Кетма-кет портлаган гранаталар душманни доводиратиб қўйди. Тўс-тўполон ичида фашистлар устига ташланган сапёрлар автоматларидан ўқ ёғдириди. Сўнгра қўл жанги бошланди. Душман аскарлари бутунлай қириб ташланди. Олд позиция бўлинма жангчилари қўлига ўтди. Тўплар ҳам келишилгандек тин олди. Операциянинг биринчи босқичи бажарилди.

– Йигитлар, энди жанговар топшириқнинг асосий қисмига ўтамин! Ҳозир артиллерия яна ҳужум бошлайди. Бундан фойдаланиб, ҳар иккала кўприкни қисқа вақт ичида миналардан тозалашимиз шарт. Ўзингизни сездириб қўядиган бирорта ҳаракат, шовқин бўлмаслиги керак. Шунинг учун овоз чиқарадиган барча буюмларни окопда қолдирамин.

Шу пайт тўпчилар яна ҳужум бошлади. Сапёрлар командирларининг айтганини бажариб, унинг «олга» буйруғи билан кўприклар томон эмаклаб кетди.

– Федорчук, минаскателни келтир! Йигитлар эҳтиёт бўлинг!

Жангларда тажриба орттирган профессионал сапёрлар тезлик ва эҳтиёткорлик ила терлаб-пишиб, ерга қадалган ажал уруғларини битталаб зарарсизлантиришарди. Икки соатлик машаққатли ҳаракатдан сўнг кўприклар турли ҳажмдаги юзлаб миналардан тозаланди. Узоқ масофадан бошқариладиган, соат механизми билан ишлайдиган, тутатгичли миналарнинг бирортаси кўздан қочирилмади. Сапёрлар тун қоронғисидан ер бағирлаб, яна ишғол этган позицияларига қайтишди. «Кёнигсберг» операцияси муваффақиятли бажарилди. Қўмондонлик топшириғи аъло даражада адо этилди. Йигитлар бу ҳақида шартли сигнал орқали хабар берди. Сотим Нурметов тўрт соатлик тинимсиз ҳаракатдан сўнг ҳолдан тойган жангчиларга дам беришга қарор қилди...

Йигитларни олдинда кўтилмаган хавфли саргузаштлар кутарди.

(Давоми кейинги сонда)

(воқеъи ҳикоя)

Хива шаҳридаги чоғроққина ҳовли. Сотимнинг онаси ҳар доимгидек, юзлари қизариб, тандирда нон ёпяпти. Йигитча катта-катта қип-қизил нонларни ейиш учун қўлига оляптию, иссиқлигидан саватга қайтиб ташлаб юборяпти. Онаси кулиб, нонларни пуфлаб, унга қайта тутқазяпти. Қайноқ нонлар яна унинг қўлидан саватга тушиб кетяпти...



...Туғилиб-ўсган қадрдон гўшаси, онажонисини туш кўраётган Сотим мина портлашидан уйғониб кетди. Йўқ, атроф жим-жит, ҳаммаси жойида. Узоқларда тўплар наъраси қулққа чалинади. Уч кундан буён тин билмаган сапёр сафдошлари ёнида қотиб ухлаяпти.

Йигит кўрган тушини кўз олдига келтириб, юраги ҳаприқди, кўзларини юмиб, қайноқ нон хидини туйгандек бўлди, аста уҳ тортди. «Бу ажал майдонидан она юртга қайтиш,

Зулфия ЮНУСОВА,
«Vatanparvar»



ҚИЗҚҰРҒОН

Жарроҳлик амалиётидан кейин Суюмбеканинг ўзига келиши қийин бўлди. Икки кунки, гоҳ ҳуд, гоҳ беҳуд. Сахар кўзларини очиб, ёнида тунни бедор ўтказган эрини кўрди. Тамшаниб, сув сўради. Ўзига келганидан севиниб, эри ҳам унга шоша-пиша сув тутди. Икки ютум сув ичиб, оёқ учига қаради, кейин эшитилар-эшитилмас оҳангда сўради:

– Арслон акам ташқарига чиқдимми?

Эркакнинг сув тутган қўли титраб кетди.

– Туш кўрдинг, менимча, – эркак аёлининг ёноқларини авайлаб силади. Суюмбека ҳорғин кўзларини юмди.

Эри ранги докадек оқариб, узун киприклар юзларига соя солган аёлига термилди. Юзини юзига яқин келтириб, гўдак эркалагандек товушда деди: «Чиройлигим, ўзингга келақол, энди, сенсиз ҳеч ҳузуримиз йўқ, бундан кейин шафтолининг энг яхшисини сенга бераман, сўз талашмаймиз ҳеч...» Шу лаҳза Суюмбеканинг қуруқшаган лаблари табассум қилмоқчидек билинар-билинимас ҳаракатга келди. Эркак севинди. Аёли уни эшитяпти. Демак акасини сўраганида ҳали тамоман ўзига келмаган экан. Дориларнинг таъсири бўлса керак, туш билан ўнгни адаштириб, акасини сўраган. Арслон оламдан ўтганида Суюмбека тўққиз ёшга ҳам кирмаган эди. 13 ёшли бола эди акаси ҳам.

Кўчада машина уриб юборган, фалокат ҳам Суюмбеканинг кўз ўнгига бўлганди. Ҳайдовчи маст экан, нима бўлганини ҳам англамай чинқирганича ўзини акасининг устига отган қизалоқнинг теласида бақрайиб тураверган. Тезда одамлар йиғилди, акасининг қонига беланган қизалоқни ҳам машина уриб юборган деб гумон қилиб, касалхонага олиб кетдилар... Бола эса йўлда жон берди.

Ота-онаси ягона ўғилнинг дардида қон ютдилар. Аммо улардан ҳам кўра Суюмбеканинг қайғуси оғир эди. Қизалоқ ётиб қолди. Хаста бўлмади, жудоликни кўтара олмаётганди. Арслон унинг олами эди. Ҳамма, ҳамма нарса унга олиб борар эди, ҳамма нарса у билан мукамал эди. Эртақлар ҳам, орзу-хаёллар ҳам, ўйинлар ҳам акаси билан қизиқ эди. У кулмай қўйди, қалдирғочдек вижирлашдан тинмайдиган қизалоқ кунларча бир сўз демай ётарди. Катта ҳовлига сукунат чўқди. Фаслар икки бор алмашиб, олам яшилликка бурканган бир паллада Арслоннинг синфдоши Расул қўлида кўмирдек кучукбола билан ҳовлига кириб келди. Суюмбека уларни кўриб,

тўғрироғи, кучукболани кўриб, бироз жонлангандек бўлди. Фингшиётган кучукболани қўлига олиб, бағрига босди.

– Менга олиб келдингизми?

– Ҳа, сен учун қирдаги чўпонлардан суриштириб, топиб олиб келдим.

– Раҳмат, – қизалоқ йигитчага миннатдор боқди. – Акам... бир энтикиб олди-да, давом этди, – кўзда туғилган кучукбола олиб бераман деган эди, улар чидамли бўлар экан.

– Бу ҳам чидамли бўлади, қандай от кўясан бунга, Қоравойми?

– Қоравой десам хафа бўлади, кўзлари қароликдек чиройли экан, Қароли деб чақираман.

Ҳа, йўқдан нарига бормайдиган қизлари гаплашаётганини кўриб, эр-хотин ҳам айвон лабига келиб ўтиргандилар. Сўнгги гапларини эшитиб, икковлари йиғламоқдан бери бўлиб жилмайдилар. Зора шу кучукбола билан бу хонадон деворларига қадар сингиб кетган сукунат чекинса, қизалоқ қалбидаги ғамлар ариса.

Суюмбека ҳовлига тушди, кучукбола уни анчагина жонлантирган эди.

– Расулжон, барака топ, жўрангдан кейин шу қизнинг ҳам овози тиниб қолган эди, – деди ота овози хиёл титраб. – Қандай хаёлингга келди-я бу иш?

– Арслон билан уч йил аввал ҳам қирдаги чўпонлар олдига бориб келгандик, ўшанда қуруқ қайтганмиз, йўл бўйи «синглимни севинтираман, деган эдим», деб қайта-қайта тақрорлаганди. Шу ёдимга тушиб бу сафар ўзим бориб келдим.

Эр-хотин Расулга қайта-қайта раҳмат айтиб, кузатиб қўйдилар.

Қаролининг пайдо бўлгани Суюмбекани анчагина ўзига келтирди. Бироз ўтиб, мактабга ҳам қатнай бошлади. Ҳаёт давом этарди. Қароли Расулни ҳам бу хонадонга янада яқин қилди. Йиллар ўтиб, унинг совчилари Суюмбекани сўраб келганида ота-онаси йўлаб, ҳам ўтирмай розилик билдирдилар.

Бунга ҳам талай йиллар кечди. Бугун ўзларининг ҳам ўсмир ёшда ўғил-қизлари бор. Шу касаллик қаердан ҳам ёпишди-я? Докторлар амалиётдан кейин асорати деярли қолмайди, дейишган эди. Ўзига келмаётганини айтганида эса буни нормал ҳолат дедилар. Расул шуларни йўлаб, бошини хотини ётган каравотнинг четига қўйди. Кўзи илинибди.

Ҳамшира кирганида Суюмбека унга қараб, «жимм» дегандек ишора қилди. Фариштадек оппоқ кийинган қиз каравотга бош қўйиб пинакка кетган эркакни кўриб, жилмайиб сассизгина чиқиб кетди.

Аёл яна оёқ учига боқди. «Акажон, кўрғоним, ҳимоячим, мен сизни ҳар лаҳза ҳис қилиб ётдим, оёқ учимдан ҳеч кетмадингиз-а...» деди пичирлаб, шу он кўзлари четидан ёш сизиб чиқди. Энтикиб юбормаслик учун дераза томонга бошини бурди. Хаёлларга эрк берди.

...Акажон, мактабга боришни истамайман.

– Нега, сени ёшингда ҳамма мактабга боради?

– Бир нарса айтсам, кулмайсизми, масхара қилмайсизми?

– Йўқ, кулмайман, масхара ҳам қилмайман, айт.

– Акажон, Қизқўрғоннинг олдидан ўтиб мактабга қатнашга кўрқаман. Жамила айтдики, унинг ичида ал-



васти бор экан, шамолга қўшилиб бақирамиш.

– Сендек ақлли қиз ўша пахмоқнинг гапларига ишондингми?

– Ҳа, кўрқаман, қаттиқ шамолдан ҳам кўрқаман.

– Ёнингга мен бўлсам ҳам кўрқасанми?

– Йўқ, ёнимда бўлсангиз ҳеч нарсадан кўрқмайман.

– Унда кетдик, ҳозир Қизқўрғонга борамиз, сенга ҳаммасини ўша ерда тушунтириб бераман.

Ака-сингил етаклашиб кетдилар. Катта йўлдан юз метрлар наридаги эски девор қолдиқларини Қизқўрғон дейишарди. Халқ орасида бу эски харобалар ҳақида ҳар хил миш-мишлар юрарди.

Арслон синглисини катта харсанг устига чиқариб қўйиб, ҳеч кимни кига ўхшамайдиган афсонани айта бошлади:

«Қадим замонларда биз турган еримиз улкан шаҳар-қалъа бўлган. Бу қалъанинг тарифи етти иқлимга тарқатган. Қалъани эгаллаб олиш учун ҳар хил душманлар бу ерга тез-тез ҳужумлар қилиб турган. Аммо ҳеч бири эгаллай олмаган. Жуда мустаҳкам экан-да. Қалъани азамат бир бек бошқарар экан. Жасур бекнинг синглиси ҳам бор экан. Қиз акасига доно маслаҳатлар берар экан. Акаси ҳам қалъа-шаҳарни бошқаришда синглисининг маслаҳатларига қулоқ солар экан.

Бир куни қалъага яна душманлар ҳужум қилибди. Булар ҳам забт қилолмабди. Шунда душман саркардаси ҳийла ишлатибди. Бекнинг синглисини хушомад тўла хатларга кўмиб ташлабди. Сиз ҳаммадан гўзалсиз, доносиз, қалъа аслида сизники бўлиши керак... Мана шунақа ёлғонлар билан қизни бошини айлантирибди. Агар шаҳарга яширин кириш йўлини билдирсангиз, сизга уйланиб, қалъа бошқарувини сизга ҳада қилардим, дебди. Қиз бир-икки марта қалъадан яширинча чиқиб, саркардани узоқдан кўрган экан. Кўзига жасур ва келишган инсон сифатида кўринибди. Ва бир куни... яширин йўлни душманга кўрсатибди.

Душман шаҳарга қуюндек бостириб кирибди. Ҳаммани қиличдан ўтказибди, қон дарё бўлиб оқибди. Шаҳарни эса бир неча кун талабдилар. Қиз саркардага таъна билан боқиб дебди: «Сен бошқача ваъда бергандинг-ку?» Саркарда эса қизга қараб: «Хоин аҳдга вафо ҳақида гапиряптими? Акасига вафо қилмаган қиз марҳаматимизга нолойиқдир». Шундан кейин барча сарбозларига буюрибди: «Хоин қизни ўлдирманг, қалъа аҳли учун битта ўзи мотам тутсин».

Д у ш м а н қалъа-шаҳарни шип-шийдон этиб талаб, қари-ёшини битта қолдирмай ўлдириб кетибди. Қиз эса қилган ишидан пушаймонликда ҳар ерда нолон кезиб, охири ўзини тошларга отиб ўлдирибди».

Айримлар қиз ҳамон тирик деб ишонадилар. Шамол кўтарилганида қизнинг йиғиси эшитилади, дейишарди. Сен бунга ишонма. Авваллари шамол йўли баланд деворлар билан тўсилган, йиллар ўтиб, нураган ва кучли шамол кўзғалганида хароба ичида аллақандай овоз чиқаради. Қулоқ сол, эшитяпсанми? Бу бор-йўғи шамол.

Қизча акасига ишонди. Чунки у ҳамма нарсани билади, унинг акаси ҳаммадан ақлли. Суюмбека Қизқўрғондан кўрқмай қўйди.

Аммо амалиётдан кейинми ё амалиёт вақтидами у яна Қизқўрғонни кўрди. Негадир кўрқинчли эди. Харобалар орасида Арслон акасини кўрди. Унга қараб югурди. Аммо оёқларига тош боғлангандек эди. Йиғлаб акасини ёрдамга чақирар, у эса тобора синглисидан узоқлашарди. Шу пайт бир қиз чиқиб, уни қўлидан тутганича ичкарига бошлади. Афсонадаги қиз шумикан? Яна олдида акаси пайдо бўлди, уни ташқарига тортқилади. Қиз Суюмбеканинг қўлидан маҳкам тутиб олди. У акасига қарагиси келмай, қиз билан қолгиси келди. Аммо Арслон ҳам тинмай тортқиларди. Бироз ўтиб акасининг қадрдон овозини эшитди: «Суюмбекааа...» севинчдан акаси томонга ўгирлиди ва қиздан қўлини тортиб, унга эргашиб катта йўлга чиқди. Бирдан ҳамма нарса ғойиб бўлди. Аммо қарандир акасининг овози келарди. Кейин овоз ҳам йўқолди... Ўзини касалхона каравотида кўрди. Оёқ учиди Арслон акаси жилмайиб турарди. Хотиржам тортиди. Чанқади. Икки ютум сув ичди. Яна оёқ учига қаради акаси жойида йўқ эди... Бошини ёстиққа қўйиб, кўзларини юмди. Олислардан Расулнинг овози эшитилди. Кейин тобора яқинлашди. Гапларига кулгиси қистади... Кўзларини очганида эри каравот четига бош қўйиб ухларди.

Бироз ўтиб, деразадан мўралаган офтобдан кўзлари қамашди. Бошини эри томон буриб, заиф қўллари билан унинг сочларини силади. Шафтолини эслаб, жилмайди.

«СКОРПИОН» ЛОЙИХАСИ



Франциянинг «Арквус» компанияси мутахассислари мамлакат Куролли Кучларининг қуруқликдаги қўшинларига қарашли бронетанк техникаси паркинни янада такомиллаштиришга йўналтирилган «Скорпион» лойиҳаси доирасида «Скарабей» деб номланган янги жанговар разведка машинаси-ни (Ғилдираклар формуласи 4 x 4) ишлаб чиқди. Янги жанговар воситага гибрид кучланиш қурилмаси – қуввати 300 от кучига тенг бўлган дизель двигатели ҳамда электромотор (75 кВт) ўрнатилган. Пўлат зирхдан ишланган монокок типидagi машина корпуси тўлиқ пайвандланган. Кучланиш қурилмаси машинанинг орқа қисмида, олд томонида эса багаж (юк) бўлими ва механик-ҳайдовчининг ўрни жойлашган.

«Скарабей»га масофадан бошқарилувчи «Хорнет» типидagi жанговар қурол модули ўрнатилган.

Машина конструкциясини ишлаб чиқишда компания мутахассислари принципал жиҳатдан янги ечимлардан фойдаланишга ҳаракат қилган. Жумладан, француз мутахассислари жанговар машиналарни яратишда биринчи марта икки томонга очиладиган эмас, балки суриладиган эшикларни қўллашган. Экипажи тўрт кишидан иборат бўлган «Скарабей»нинг жанговар оғирлиги унинг комплектланишига боғлиқ равишда 6,6 дан 8 тоннагача, жанговар юкланмаси эса 1,8-2 тоннагача бўлиши мумкин.



МОРСКОЙ ВАРИАНТ БПЛА

Китайская аэрокосмическая корпорация (CASC) проводит испытательные полеты морского варианта своего многоцелевого средневысотного беспилотного летательного аппарата CH-5 («Цайхун-5») большой продолжительности полета. В связи с необходимостью решения задач в условиях высокой влажности и воздействия морской воды новый БПЛА модернизирован и оснащен радиолокационной станцией (РЛС) кругового обзора, смонтированной под фюзеляжем. Он будет предназначен для решения разведывательных задач над морской акваторией, а в будущем, возможно, для ведения противолодочной борьбы и нанесения ударов по надводным целям. В ходе тестов были проверены летные характеристики БПЛА, функционирование полезной нагрузки, электромагнитная совместимость всех систем аппарата, а также передача разведанных по радиоканалу. По заявлению специалистов CASC, первые испытания прошли успешно, что позволяет перейти к следующему этапу – полетам над морем. Стандартная версия CH-5 представляет собой разведывательно-ударный БПЛА, аналогичный американскому MQ-9 «Рипер» производства компании «Дженерал атомикс». Размах крыла 21 м, максимальная взлетная масса 3 300 кг, масса полезной нагрузки 480 кг, максимальная высота полета 8 300 м, продолжительность полета 35 ч, максимальная скорость 300 км/ч.

МОДЕРНИЗИРОВАННЫЙ



Дизель-электрическая подводная лодка (ДЭПЛ) «Нагапаса» Военно-морских сил Индонезии (бортовой номер 403) заложена 9 апреля 2015 года на верфи южнокорейского судостроительного предприятия «ДЭУ шипбилдинг энд марин инжиниринг», спущена на воду 24 марта 2016-го и введена в состав военного флота страны 2 августа 2017 года. Субмарина представляет собой германский модернизированный проект 209/1400. Надводное водоизмещение подводной лодки 1 280 тонн, подводное – 1 412 тонн, длина 61,2 м, ширина 6,6 м, осадка 5,5 м, рабочая глубина погружения 200 м, максимальная – 280 м, максимальная скорость надводного хода 11 узлов, под водой – 21,5 узлов, дальность плавания 10 000 миль. Экипаж 32 человека, включая пять офицеров. Главная энергетическая установка включает четыре дизельных двигателя компании MTU. Вооружение – восемь 533-мм торпедных аппаратов для стрельбы тяжелыми торпедами «Блэк Шарк» и система постановки минных заграждений. Радиоэлектронные средства: автоматическая система боевого управления (АСБУ) MSI-90 Mk 2, радиолокационная станция надводной обстановки / навигационная Indra Aries, гидроакустический комплекс CSU-90, инерциальная навигационная система Sagem Sigma 40 XP, два перископа – Sera 400 и OMS 100, система противоторпедной защиты ZOKA Aselsan.



ЯНГИ ТИЗИМЛАР БИЛАН ЖИҲОЗЛАНГАН

Хитойнинг Тип-99А2 типидagi асосий жанговар танки маҳаллий «Норинко» корпорацияси мутахассислари томонидан аввал ишлаб чиқарилган Тип-99 танкининг модернизацияланган варианты ҳисобланади. Модернизациялаш жараёнида унга янги жанговар ахборот-бошқарув тизими, прицел (нишонга олгич) комплекси, фаол химоя тизими, кучайтирилган динамик химоя, такомиллаштирилган ўқлаш автомати ўрнатилган. Танкнинг асосий тактик-техник тавсифлари қуйидагича: жанговар оғирлиги (динамик химоя билан биргаликда) 52-54 тонна, тўп билан биргаликдаги узунлиги 10,9 метр, эни (кенглиги) 3,4 метр, башня томигача бўлган баландлиги 2,4 метр, клиренс 0,47 метр. Кучланиш қурилмаси умумий қуввати 1 500 от кучига тенг бўлган дизель двигателдан ташкил топган. Танкнинг паст-баланд (ўнқир-чўнқир) жойлардан максимал юриш тезлиги соатига 65 км, ёқилғи бўйича юриш захираси 650 км. Экипаж уч кишидан иборат. Машинага 125 мм.ли силлиқ стволли тўп, у билан жуфтлаштирилган 7,62 мм.ли пулемёт ҳамда 14,5 мм.ли зенит пулемёт ўрнатилган. Шунингдек, Тип-99А2да тутун тарқатувчи гранаталарни ишга тушириш қурилмаси ва экипажни лазер нурланиш тўғрисида огоҳлантирувчи махсус тизим ҳам мавжуд.

O'ZBEKISTONDA



XALQARO INVESTITSIYA FORUMI

Poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida Toshkent xalqaro investitsiya forumi bo'lib o'tmoqda. Forumga xalqaro tashkilotlar va moliyaviy tuzilmalar, 56 ta davlatdan 1 ming 500 nafarga yaqin yirik investorlar va yuqori martabali mehmonlar tashrif buyurgan. Xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki prezidentlari, vazirlar, yirik korporatsiya va kompaniyalar rahbarlari ishtirok etmoqda. Forum doirasida yalpi majlis va sho'ba majlislari, davra suhbatlari, taqdimotlar, brifinglar kabi qator tadbirlar ko'zda tutilgan. Ushbu forumda hukumatning mamlakatni strategik rivojlantirish, xususi sektorni rag'batlantirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash va boshqa yo'nalishlardagi ustuvor vazifalari belgilanadi.



413 TA QISHLOQ VA MAHALLA TANLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori imzolandi. Unda qayd etilishicha, respublikada o'tkazilgan xatlov natijasida ijtimoiy-iqtisodiy muammolari ko'p bo'lgan 1 071 ta qishloq va mahalla mavjudligi aniqlandi. Har ikkala dasturni amalga oshirishni izchil davom ettirish orqali aholining turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Inson qadriini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 2022-yil uchun qurilish, ta'mirlash hamda obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladigan jami 413 ta qishloq va mahalla tanlab olingan.



INFEKSIYAGA CHALINISH KAMAYMOQDA

2022-yil 23-mart holatiga ko'ra, O'zbekistonda koronavirus infeksiyasi qayd etilganlar soni 237 533 (+6) nafarni tashkil etmoqda. Bu haqda SSV xabar qildi. Yangi kasallanish holatlarining 6 nafari Toshkent shahrida koronavirusga chalingan bemorlar bilan muloqotda bo'lganligi sababli namuna olingan fuqarolar orasida aniqlangan. Shu kun davomida Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 nafar, Andijon viloyatida 5 nafar, Jizzax viloyatida 1 nafar, Surxondaryo viloyatida 1 nafar, Toshkent shahrida 29 nafar bemor tuzalib, kasallikdan sog'ayganlar jami 235 224 (+37) nafarga yetdi va sog'ayish ko'rsatkichi 99 foizni tashkil etmoqda.

(O'ZA)

JAHONDA

ERONNING HINDISTONGA TAKLIFI



Eron hukumati Hindistonga neft va tabiiy gaz uchun to'lovlarni hind rupiyasida amalga oshirishni taklif qildi. Bu haqda "The Economic Times" gazetasi xabar berdi. Eronning Hindistondagi elchisi Ali Chegeniyning so'zlariga ko'ra, Eron Hindistonga eng ko'p neft yetkazib beruvchi mamlakatlardan biriga aylanmoqchi. "Eron Hindiston bilan energetika xavfsizligi sohasida hamkorlik qilishga hamda neft va gazni hind rupiyasiga sotishga tayyor. Hindiston bilan barcha savdolarning rupiyada

amalg oshirilishi mamlakatlarimizga uchinchi tomon vositachiligidan qutulish va savdo aylanmasini 30 mlrd dollargacha yetkazish imkonini beradi", dedi diplomat.

OSMA KO'PRIK ISHGA TUSHIRILDI



Turkiyada Osiyo va Yevropa qit'asini bir-biriga bog'laydigan "Chanoqqal'a 1915" osma ko'priki ishga tushirildi. Tantanali ochilish marosimida mamlakat prezidenti Rajab Toyyib Erdog'an ishtirok etdi, deb xabar beradi CNN. Turkiya va Janubiy Koreya kompaniyalari tomonidan barpo etilgan, olti polosali (har bir yo'nalishda uchadan) osma ko'priknin umumiy uzunligi 4 608 metr, ustunlarining balandligi esa 318 metr bo'lib, markaziy

ikki ustun orasidagi masofa 2 023 metrni tashkil etadi. Ustunlarning tutashgan joylari va ko'priknin bir qator elementlari Turkiya bayrog'i ranglari bo'lgan qizil va oq rangga bo'yalgan. Yangi ko'priki yiliga 415 million yevro daromad keltirishi ko'zda tutilgan.

YANGI SMARTFONLAR TAQDIMOTI



Xiaomi xalqaro bozor uchun mo'ljallangan Xiaomi 12, Xiaomi 12 Pro va Xiaomi 12X smartfonlari taqdimotini o'tkazdi. Asosiy model hisoblanuvchi Xiaomi 12 Pro smartfoni Snapdragon 8 Gen 1 protsessori va 6,73 dyuymli AMOLED-ekran bilan jihozlangan. Unga har biri 50 Mp bo'lgan uchta kamera o'rnatilgan. Akkumulyator sig'imi 4 600 mAs. Xiaomi 12 sal oddiyroq – uning ekranini 6,3 dyuymga teng. U 50, 13 va 5 Mp bo'lgan uchta kamera bilan jihozlangan. Sig'imi 4 500 mAs

bo'lgan akkumulyatori simli va simsiz quvvatlanadi. Xiaomi 12X esa 12-model bilan bir xil, faqat unga Snapdragon 870 protsessori o'rnatilgan va simsiz quvvatlanish xususiyatiga ega emas.

AMALDORLAR JAZOLANDI



Xitoyda bir oilaga 15 nafar farzand ko'rishga yo'l qo'ygan 11 nafar amaldor jazolandi, deb xabar berdi Asia One. Xabarda aytilishicha, Guansi viloyatida yashovchi 77 yoshli Lyan Er va 47 yoshli Lu Xunlan mamlakatda "bir oila – bir farzand" siyosati amal qilgan 1995-yildan 2016-yilgacha 15 nafar farzand ko'rgan. Bundan tashqari, ular er-xotin sifatida rasman ro'yxatdan ham o'tmagan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu oila qashshoqlikda, davlat subsidiyalari va

xayriyalar evaziga kun ko'rib kelgan. Farzandlarning to'rt nafari ishlaydi, qolganlari o'qiydi. Ushbu oila haqida mahalliy hokimiyatga ma'lum bo'lganidan so'ng surishtiruv ishlari boshlangan va bu oilani kuzatib bormagan 11 amaldor jazolandi.

MINTAQADA



RIVOJLANISHNING YANGI BOSQICHI

Qozog'iston prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Olmaotada bo'lib o'tgan Navro'z bayrami tantanalaridagi chiqishi chog'ida mamlakatda keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirilishini ma'lum qildi. "Bizni oldinda keng islohotlar kutmoqda, oldimizda yangi Qozog'istonni qurish vazifasi turibdi. Siz, yoshlar bilan birgalikda biz yangi mamlakat, yangi Qozog'istonni albatta, quramiz", dedi u. Toqayev mamlakat rivojlanishning yangi bosqichiga kirganini, keng ko'lamdagi islohotlar Qozog'istonni tubdan modernizatsiya qilishga qaratilganini qayd etib, bu ishda barcha fuqarolar, ayniqsa, yoshlar faol ishtirok etishlariga umid bildirdi.



ELEKTRON FORMATDA O'TKAZILADI

Qirg'iziston prezidenti Sadir Japarovning Milliy statistika qo'mitasi rahbari Baktibek Kudayberganov bilan uchrashuvida joriy yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan mamlakat aholisi va turar joy fondini ro'yxatga olish ishlariga tayyorgarlik masalalari muhokama qilindi. Mamlakat rahbari mazkur keng ko'lamli tadbirning katta ahamiyatga egaligi pandemiya sharoitlarida ishtirokchilar xavfsizligi hamda shaxsiy ma'lumotlar maxfiylikini ta'minlash muhimligini ta'kidlab o'tdi. Ma'lumotlarga ko'ra, aholini ro'yxatga olish birinchi marta elektron formatda, ro'yxatga olinuvchilarning shaxsiy uyali telefonlari yoki planshetlaridan foydalangan holda mobil ilovalar yordamida o'tkaziladi.



ENG GO'ZAL VA JOZIBALI

Turkmanistonda "Eng go'zal va jozibali qizcha – 2022" ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Mamlakat xalq ta'limi vazirligi va Mahtumquli nomidagi Yoshlar tashkiloti markaziy kengashi tashabbusi bilan o'tkazilgan mazkur tadbirda 2-4-sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Final bosqichida maxsus hay'at tomonidan eng yaxshi deb topilgan 12 nafar o'quvchi qiz ishtirok etdi. Ijodiy tanlov yakuniga ko'ra, hammadan yaxshi she'r aytgan va qo'shiq kuylagan, shuningdek, eng chiroyli milliy libosda chiqqan to'rtinchi sinf o'quvchisi Gulandom Merdanova g'olib deb topildi va "Eng go'zal va jozibali qizcha – 2022" unvoniga sazovor bo'ldi.



MAMLAKAT BAYROG'I O'ZGARTIRILDI

Afg'onistonda hukumat tepasiga kelgan "Tolibon" harakati mamlakatning shu davrgacha amalda bo'lgan uch rangli milliy bayrog'idan foydalanishni rasman taqiqladi. Bu haqda toliblar hukumatining tegishli farmoni qabul qilindi. Hujjatga ko'ra, barcha hukumat muassasalari mamlakatda va uning tashqarisida endi faqat harakatning oq rangli bayrog'idan foydalanishi shart. "Tolibon" hukumati mudofaa vazirligi rasmiy vakili Lutfullo Habibiyning so'zlariga ko'ra, harakatning mansabdor shaxslari va davlat muassasalarining oldingi hukumat bayrog'idan foydalanishi qat'iy taqiqlanadi.



Keyingi yillarda yurtimizda yoshlar qalbida vatanparvarlik hissini uyg'otish, mustahkamlash va kuchaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, bu muhim vazifani bajarishga O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Qo'shko'pir tumani O'rtayop o'quv sport-texnika klubi jamoasi ham munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Jumladan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etishga hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega farzandlar sifatida voyaga yetkazishga yo'naltirilgan tadbirlar bu boradagi ishlar sirasidandir.

– Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishi va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ko'plab hamkor tashkilotlar bilan kelishilgan reja asosida ish olib borilmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Rustam Atamuratov. – Albatta, bunday

ezgu ishlarimizni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori dasturilamal bo'lmoqda. Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida bevosita tuman hokimligi, mudofaa ishlari, xalq ta'limi bo'limlari hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi bilan birgalikda ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini ular orasida ommalashtirish, besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar shular jumlasidandir.

YOSHLARGA AMALIY KO'MAK



Bir so'z bilan aytganda, endilikda yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda ularni klubda faoliyat ko'rsatayotgan sport to'garaklariga jalb etishda yoshlar e'tiborini tortadigan g'oya va tashabbuslar ishlab chiqildi. Jumladan, tumandagi "Yoshlar

daftari"da ro'yxatda turadigan yoshlar va kam ta'minlangan oilalar farzandlariga ham bir qancha qulayliklar yaratildi. Bunday yoshlarning haydovchilik kurslarida o'qishlari va hayotda kerak bo'ladigan qo'shimcha kasb-hunarlarini egallashlariga amaliy ko'mak berilmoqda.

Fursatdan foydalanib, "Vatanparvar" tashkiloti Qo'shko'pir tumani O'rtayop o'quv sport-texnika klubi jamoasi barchangizni yasharish va yangilanish fasti bo'lmish bahor ayyomi – Navro'zi olam bilan muborakbod etadi. Uohim, yurtimiz tinch, osmonimiz doimo musaffo bo'lsin! Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz yurtodoshlar!



#"Vatanparvar" faollari

G'AYRATGA DA'VAT

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Xiva-karvon o'quv sport-texnika klubida ham ancha yillardan buyon jamoa oldiga qo'yilgan vazifalarni sidqidildan ado etib kelayotgan ustozlar ko'p. Shulardan biri Ollayor Tojiyevdir.

Ollayor og'a chorrahaga yaqinlashganda qadamini sekinlatdi. Svetoforlar ishorasi bilan navbatmanavbat o'tayotgan mashinalar oqimini kuzatdi. Ular yil sayin ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yengil avtomobillar. Ularning rulda o'tirganlaridan qay biri mening shogirdim ekan-a? Birdan yonginasidan o'tayotgan "Cobalt" avtomashinasining signalidan uning xayoli bo'lindi. Shu tomonga qarasa, rulda bir o'rta yashar kishi unga jilmayib, qo'l silkiyapti. "Salom, domla!" deb oqim bilan o'tib ketdi. Kim ekan u? Eslay olmadi. Ee... Qaysi birini eslasin, yoshlar, kattalar, turli kasb egalari...

Ollayor Tojiyev 2016-yildan buyon "Vatanparvar" tashkiloti Xiva-karvon o'quv sport-texnika klubida ishlab kelmoqda. Dastlab u haydovchi-

o'qituvchi sifatida faoliyat boshladi. Chunki uning bu sohada ancha bilim va tajribasi bor edi. Urganch avtomobil yo'llari texnikumini muvaffaqiyatli bitirib, Xiva shahridagi 8-, 9-umumta'lim maktablarida "Yo'l harakati qoidalari" darsidan o'quvchilarga saboq bera boshladi. Bu yillar mobaynida O. Tojiyev tashabbusi bilan maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan respublika "Yashil chiroq" musobaqasida xorazmlik yosh avtonazoratchilar bir necha bor mamlakat bosqichida faxrli 1-o'rinni egallashga musharraf bo'ldilar.

O'tgan yillar mobaynida qahramonimiz "Harakat xavfsizligini ta'minlash", "Yo'l-transport hodisalarining oldini olish", "Bolalar ishtirokidagi ko'ngilsiz hodisalarining oldini olish" singari dolzarb mavzudagi maqolalari bilan nafaqat yo'l-transport hodisalarining oldini olish targ'iboti, balki haydovchilar



tayyorlash ishiga ham munosib hissa qo'shib kelmoqda. Bu yo'nalishda muvaffaqiyatlarga erishib, ko'plab shogirdlar tayyorladi. Endilikdagi faoliyati davomida Ollayor Tojiyevga mas'uliyatli vazifa topshirildi. Uning zimmasiga tinglovchilarga yo'l harakati qoidalari, avtomobil tuzilishidan mashg'ulotlar o'tish bilan bir qatorda klubga rahbarlik qilish mas'uliyati ham yuklandi. Ollayor og'a bu vazifani ham sidqidildan uddalab kelmoqda. Uning rahbarligida tashkilotning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. "Vatanparvar" tashkilotida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi bu yerda ham yaqqol ko'zga tashlandi. Mashg'ulotlar o'tish uslubi takomillashtirilmoqda.

Bu yerda "B", "BC", "C", "E" toifali haydovchilar tayyorlanadi. Avtomobil boshqarishni o'rganayotganlarning yoshi,

kasbi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvollar ham turlicha bo'lgani sababli ular bilan muomala qilish, tartib-intizomga chaqirish, saboq berishda ham turlicha yondashuvlar talab etiladi. O. Tojiyev bu vazifalarni ham tajribali ustozlar, mehnat faxriylari, "Vatanparvar" faollari bilan bamaslahat amalga oshirmoqda.

– Kasbingizdan mamnunmisiz? – deya so'raganimizda, O. Tojiyev shunday javob berdi:

– Mamnun bo'lganda qandog'?! Bizdan kasb-kor o'rganib, har yili ishonch va mahorat bilan rulga o'tirayotgan minglab kishilarning xursand qiyofalarini ko'rishning o'zi katta baxt! Bu tuyg'u faxr-iftixoringni oshiradi, yanada g'ayrat bilan ishlashga da'vat etadi.

Biz ham bugun o'zining 60 yoshlik to'yini nishonlayotgan O. Tojiyevni qutlab, ularga uzoq umr tilaymiz. Mas'uliyatli vazifada hech charchamang, Ollayor og'a!



AYOLLAR ENERGIYASINI YEMIRUVCHI ODATLAR

(Psixolog maslahati)

AYOLLAR BEKATI



× *Kech uxlash* (juda kech uyquga yotish ayolning kun davomida lanj yurishiga sabab bo'ladi...)

× *Kech ovqatlanish* (hazm qilishga kuchli energiya sarflanadi)

× *Televizor qarshisida ko'p o'tirish* (serial qahramonlari hayoti bilan bo'lib, ularni o'ylab beixtiyor ko'p energiya yo'qotadi)

× *Negativ fikrlaydigan insonlar bilan suhbatlashish* (ular o'zidagi salbiy energiyani sizga o'tkazadi...)

× *"Odamlar men haqimda nima deb o'ylaydi?" deb siqilish* (bu juda katta energiyani chiqarib yuboradi)

× *Kelajak haqida doimiy o'ylash* ("Nima bo'larkan?", "Endi nima qilaman?" deb o'ylash ko'p energiyani sarflaydi. Unutmang, bugun va hozir mavjud!)

× *Doimiy shoshilish.*

× *Keraksiz narsalarni uyda saqlash va har ko'rganingizda asabiylashish energiya yo'qolishiga sabab bo'ladi.*

× *G'iybat qilish.*

× *Gina-kudurat, xafagarchilik.*

Tanlov o'zingizda, xohlaganingizni tanlang! Energiya bilan to'yining yoki uni behuda sarflang!



*Qiymani
turkcha pide*



Bunday mazali yegulikni nafaqat nonushta va tushlikka, balki yengil tamaddi sifatida ham iste'mol qilsa bo'ladi.

Kerakli mahsulotlar: un 300 g, xamirturush 2 osh qoshiq, tuz va shakar bir choy qoshiq, suv 240 ml, zaytun yog'i 120 ml, piyoz 1 dona, bulg'or qalampiri 1 dona, pomidor 4 dona, mol va qo'y go'shti qiymasi 250 g, sarimsoq, petrushka va ta'bga ko'ra ziravorlar.

Tayyorlanish jarayoni: unga xamirturush, tuz va shakar qo'shib aralashtiring. Iliq suvga yog' qo'shib,

xamir qoring va 1-2 soat tindiring. Piyoz, bulg'or qalampiri, pomidorni mayda kubik shaklida to'g'rab, sarimsoq va petrushkani maydalang, tuz seping. Yog' solinmagan tovada qiymani qovurib, biroz qizartirib oling. Yuqoridagi mahsulotlarni qiyma bilan aralashtiring. Tindirilgan xamirni ikkiga bo'lib, har birini 3-4 mm qalinlikda yoyib oling. Chetlaridan 2 sm qoldirib, ichiga masalliqni soling. Xamir chetlarini qayiqcha shakliga keltirib, 170 daraja qizdirilgan pechda 16-18 daqiqa davomida pishirib oling.

Yoqimli ishtaha!

SUKUT SAQLASH

Ayrim gap-so'zlarga javob bermay, sukut saqlab turgan insonlar javob berishga o'z inson bo'lavermaydi.

— Shunday insonlar borki, o'zgarar qalbini jarohatlab qo'ymaslik uchun sukut saqlaydi.

— Shunday insonlar borki, o'zi alam chekib turgan bo'lsa-da, gapirsa alami yanada ziyoda bo'lmasin deydi.

— Shunday insonlar borki, gapining kor qilmastligini bilgani uchun sukut saqlaydi.

— Shunday insonlar borki, g'azab paytida biror kimsaga qattiq gapirib, uni yo'qotib qo'ymaslik uchun sukut saqlaydi.

— Eng buyuk sukut esa o'z nafsingiz va ustubingiz bilan taraqqiy topishingiz uchun sukut saqlashingizdir.



*Go'zallik uchun
15 daqiqa*

**KO'ZLARIMIZ SOG'LIG'I VA
GO'ZALLIGI UCHUN AJOYIB NIQOB**

Kerakli mahsulotlar:

— 2 paket quritilgan moychechak;
— 1 choy qoshiq agar-agar o'simligi.

Avvaliga moychechakni 1 stakan (150 ml) issiq suvda 10 daqiqa qoldiramiz. Keyin 1 choy qoshiq agar-agar o'simligidan solib, yaxshilab aralashtiramiz. Idishga solib, qaynatamiz. Tayyor bo'lgan damlamani muz bo'laklari uchun



mo'ljallangan qolipchalarga solib, 20 daqiqaga muzlatkichga qo'yamiz. So'ngra olib, ko'zlarimiz atrofiga suramiz.

Bu niqob ko'z atrofidagi mimik ajinlarni bartaraf qilishda juda foydali.





TEMIKCHI BILAN SUHBAT

Muxbirlarning bir odati bor: taniqliroq kishini uchratib qolsa, undan intervyu olish payiga tushadi. Bu muxbirga ham, gazetaga ham obro' keltirishi bor gap. Bu gal mashhur kishiga deb tuzib qo'ygan savollarimni bir yonga surdim. Bozor chekkasida qo'llari qorayib, har xil xo'jalik buyumlarini yasayotgan, bir so'z bilan aytganda, erta-yu kech mehnat qilayotgan temirchi yigitga yuzlandim. Uni gazetaga surati bilan chiqarmoqchi ekanimni aytdim.

– Biz chiqsak bo'lmas, – deydi u yog' tekkan qo'llarini fartugiga artib. – Televizordan chiqadiganlar bilan gaplashsangiz yaxshi edi, juda ravon so'zlashadi.

Uning yuzlarida mening kasbim ham, ishim ham hech narsani hal qilmaydi, degich ishora bor edi. Unga taqachi va mix haqidagi rivoyatni aytib berdim.

Ustaxonada mix yo'q ekan. Taqa otga mixsiz qoqilibdi. Jangda taqa tushib, ot oqsabdi. Avval jangchi, keyin qo'shin yengilibdi. Dushman mamlakatga bostirib kiribdi. Bariga sabab taqachida mixning yo'qligi ekan.

Siz yasagan biror asbob bilan ham shunday voqealar sodir bo'lishi mumkin-ku, deyman unga. Usta o'ylab qoldi. Mehnat uning jussasini, po'latdek qattiq qo'llarini mohirona toblagan edi. U menga munosib suhbatdosh bo'la olmayotganidan uyalar, tutilib-tutilib ketayotgan so'zlari oldida xijolatda edi. Uning siyrati yozuvchi Dostoyevskiyning uzoq yillar ajoyib va pok odam suratini tasvirlamoqchi bo'lgani, ammo shunday zotni topolmay yurgani haqidagi voqeani yodga tushirdi.

– Avvallari ko'p kitob o'qir edim. Hozir ish ko'payib ketdi, – deydi u. – Kitob yaxshi narsa-da, tirikchilik xalal bermasa – o'qi-ib yotsang. Lekin o'qiydiganlar kamayib ketdi. Televizorda ham shu gap.

Baribir o'qish kerak, deyman. Axir tonnalab qog'oz, siyoh, vaqt va mehnatning uvoli bor. Nashriyot va bosmaxonalarning parraklari tun-u kun aylangani-aylangan. Shunda ham Jek Londonni angliyalik deb o'ylovchilar topiladi.

– Gazetaga chiqarishingiz shart emas. Shunchaki, so'raganingizga bilganimcha javob beray – shu, – deydi usta. Ammo qiziqroq kitob bo'lsa, vaqt topib o'qiymen.

Kitob haqida so'rayman: – Yaxshi kitoblar ko'p. Ba'zan rastalarni aylanib yuraman. Ba'zi kitoblarning narxi chatoq...

Unga kitob bergim keldi. Yorug'lik ulashadigan biror kitob. "Alpomish"ni bersam-chi?

– Kinosini ko'rganman, – deydi u.

– Yo'q, kitobi boshqacha, – deyman. Unga dostonning qiziq joyini aytmoqchi bo'ldim: Alpomish Qalmoq mamlakatida zindonda edi. Do'sti Qorajon daragini topib keldi, chohga arqon tashladi. Chirmoviqqa osilib chiqayotgan alp negadir yarim yo'lda arqonni kesib, zindonga quladi. Nega shunday qilganini bilasizmi, deyman. Alpnig ori keladi, ertaga yuzimga solsa-chi deydi...

– Bunaqalar kamayib ketgan, arqonni kesmagan bo'lardim, – deydi usta.

Ha, men ham. Yetti yil zindon azobidan ko'ra Qorajonning minnati pesh. Asarni yaxshi ko'rishim shundan. Unda biz ko'z yumib yuradigan ko'p voqealar bor. Xullas, vijdonni uyg'otadi, qiynaydi.

Yonimizda chet ellik sayyohlar paydo bo'ldi. Ular ustaning buyumlarini ko'zdan kechirishar edi.

– Shularga maza-da, – deydi usta. Xohlagan davlatini aylanib yuraverishadi.

– Yo'q, – deyman. Ularga bizdan ham qiyin. Chunki ko'plarining yurti notinch. Unga daftarimdan kuni kecha yurtimizga o'qishga kelgan xorijlik talaba haqidagi taassurotlarimni o'qib berdim.

Xullas, u keldi, shahar va qishloqlarimizni tomosha qildi. Tarjimon uning so'zlarini hayajon bilan o'girar, ahyon-ahyonda mehmonning ko'zlari yoshlanardi. Unga oila, mahalla haqida so'zlab berdik. U moviy ko'zlarini kattakatta ochar, hayratlanib, "no, no", deb yuborardi. Tengdosh ekanmiz, qiynalib bo'lsa-da, gaplashdim. Ozigina shoirligim tutib, o'sha lahzalarni qog'ozga to'kkan ekanman:

*Biz teng edik, go'yo tengdoshlar,
Ikkimizda teng edi titroq.
Teng bo'lmadi faqat ko'zyoshlar,
Mendan ko'ra yig'lading ko'proq.*

*Deding: qanday uxlaysan, seni
Xavotirlar chorlamaydimi?
Bu yerlarda kupa-kunduzi
Portlatkichlar portlamaydimi?*

*Yo do'konda xarid chog'ida
Talanchiga yo'lamaysanmi?
Sen suv ichgan buloqlar uchun
Hech kimga pul to'lamaysanmi?*

*Otang sening yoqangdan olib,
Pul top deya baqirmaydimi?
Ishlamasang o'sha ondayoq
Millitsiya chaqirmaydimi?*

Uning gaplarini to'g'ri qabul qildik, shu yurtda yashayotganimizdan faxrlandik. Mehmonning hayrat va hayajonini no'noqlikka, kaltabinlikka yo'ymadik. Bunday fazilatlar o'zbekning har bir farzandiga oiladan o'tadi. Bu tuyg'ularni singdiradigan maktab ham, oliygoh ham – oila.

Usta diqqatini tamoman menga qaratdi. Sizga aytсам, xorijlik sayyohlarning ham xurmacha qiliqlari ko'p ekan. Yaqinda aytib qolishdi, bir yurtdoshimiz yerda to'kilib yotgan ushoqlarni termoqchi bo'lib, engashgan ekan. Sayyoh bu holatni suratga olib, o'z yurtida xalqimizning turmush tarzini salbiy bo'yoqlarda ko'rsatmoqchi bo'libdi. U non, hatto uning ushug'i ham o'zbek eli uchun naqadar azizligini, bunday qilish odatga aylanganidan bexabar bo'lgan.

Gap hayot tarzimizga ko'chdi. Eng zo'r temirchi bo'lishni xohlaysizmi, deyman unga. Temirchilik sizdan boshlansa.

– Buning iloji yo'q, – deydi u. – Chunki mendan avval ham zo'r temirchilar bo'lgan. Keyin ham bo'ladi.

Uning javobi Xitoy imperatori Shi Xuandining qilmishini eslatdi. U Xitoy tarixining o'zidan boshlanishini xohlab, uch ming yil davomida yaratilgan barcha narsalarni yo'q qilishga, ayniqsa, kitoblarni olovga tashlashga buyruq bergan. Kitob yashirganlarning esa peshonasiga tamg'a bosib, devor qurilishiga umrbod mahkum etgan ekan.

Bozorda hunarmand ko'p. Ularning ko'pida oliy ma'lumot yo'q. Yozuvchining kinoyasi rost bo'lib chiqdi: hozir "pasportini ham oxirigacha o'qimagan" qancha odamlar yaxshi yashayapti. Achchig'i shundaki, yangi asr kuchli asarlarni dunyoga keltirgani yo'q. Eski yozuvchilarning asarlari hamon klassika.

Qaytadigan vaqt bo'ldi. Bir yonda uning menga beg'alvaday ko'ringan ishi, bir tomonda mening sertashvish faoliyatim. Bo'lgan gaplarni to'la-to'kis yozishga na xohish bor, na jur'at. Jimgina xayrlashishdan bo'lak chora qolmagan.

Vatanparvar muxbir

YOMG'IR YOG'AR HAYOT BAXSH ETIB

YOMG'IR

*Yomg'ir yog'ar. Borliq qunishgan.
Bosliqadi yo'llarning changi.
Yomg'ir yog'ar. She'r yozgim kelar.
Go'yo yomg'ir yangi, she'r yangi.*

*Yomg'ir yog'ar. O'ylar o'ylayman,
Tinglab samovotning mungin jim.
Necha minginchi yomg'irdir bu
Va men shoir – necha minginchi.*

*Yo'q! Yo'q! Faqat menga bu yomg'ir
Va men bu yomg'irga doirman.
Ilk yomg'irdir olamdagi bu
Va men olamda ilk shoirman.*

*Sharros jalalarni kuylayman
Dabdabasiz, g'arib she'rlarda.
Aqlim yetmas, qanday sevarlar
Yomg'ir yog'maydigan yerlarda.*

*Yomg'ir yog'ar hayot baxsh etib
Mening qaqqoq e'tiqodimga.
Yomg'ir yog'ar. Hech kim sololmas
Seni yomg'irchalik yodinga.*

*Iymanmas hech ochilmoqdan gul,
Maysa bo'lmas unmoqdan izza.
Takorlanar har gal shu yomg'ir,
Shu saodat, shu pok mo'jiza.*

*Ezgin-ezgin halqoblar ichra
Bedardliklar eriydi cho'kib.
Limmo-lim ko'p paymonalarni
Yomg'ir yog'ar to'kib va to'kib.*

*Ogohmanki, to'ydirar jondan,
Bu olamda bo'lsa ne takror.
Men betakror takror kuylayman,
Yomg'ir yog'ar takror betakror.*

*Sochiladi har bir tomchidan
Son ming shu'la, son mingta zar ruh,
Yog'ar tuyg'u, yog'ar ehtiros,
Yog'ar tavba, yog'ar tazarru.*

*Yomg'ir yog'ar. Falak fosh etar
Sirlarining toza-tozasin.
Tutmoqchidek menga to'ldirib
Mangulikning sabr kosasin.*

*Yomg'ir yog'ar, alhamdulillah,
Har tomchida ming xotiralar...
Qutlug' bo'lsin har qaysi bitta
Yulduzdan nur emgan qatralar!*

Matnazar ABDULHAKIM

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

polkovnik Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

mayor Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: leytenant Dilshod Ro'ziqulov

Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: F-0305

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 32 927 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.